

74.00
B33

M.X. Baybayeva

**UMUMIY
PEDAGOGIKA**



74.00 930333

B 33 Волгоград 4

Инженер ред.
заготов.

T., 19

K-51043

74,00
B 33

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

A. AVLONIY NOMIDAGI XALQ TA'LIMI TIZIMI RAHBAR VA
MUTAXASSIS XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

M.X. BAYBAYEVA

UMUMIY PEDAGOGIKA

*O'quv qo'llanma
(pedagogik va kasbiy qayta tayyorlov ting'~vchilari uchun)*



“Nodirabegim” nashriyoti
Toshkent – 2019

УЎК 37.013(075.8)
КБК 74.00я73
В 23

Mazkur o'quv materiallar A. Avloniy nomidagi xalq ta'lifi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashining 2019-yil 29-iyundagi 5-son bayonnomasi qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

M.X. Baybayeva – A. Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI “Pedagogika, psixologiya” kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Taqrizchilar

D. Ximmataliev, Z.K. Ismailova – TIQXMMI “Pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi” kafedrasi mudiri, professor, p.f.d.

D.J. Sharipova – A. Avloniy nomidagi XTTRMXQTMOI “Pedagogika, psixologiya” kafedrasi professori, p.f.d.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta'lifi boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5538-son Farmoni, 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta'lifi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3931-son Qarori, shuningdek rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffot tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatiq etish yo'li bilan xalq ta'lifi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirshning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan.

Ushbu “Umumiy pedagogika” fanidan tuzilgan o'quv qo'llanmada pedagogika fanining tuzilishi, ilmiy tadqiqot metodlari, didaktika – ta'lif nazariyasi, tarbiya nazariyasi, maktabshunoslik, pedagogika tarixi, pedagogika sohasidagi dolzarb muammolar, o'quv, tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash vosita va usullaridan foydalanish, ijtimoiy pedagogika, innovatsion pedagogika, integratsiyalashtirilgan pedagogika ning ta'lif tarbiya jarayonidagi o'mi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

O'quv qo'llanma professor-o'qituvchilar, pedagogik va kasbiy qayta tayyorlov tinglovchilari, talabalar, masofadan ta'lif olayotgan tinglovchilar uchun mo'ljallangan.

KIRISH

Ta’lim O’zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor soha deb e’tirof qilindi. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, tili, e’tiqodi, ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar ta’lim olishda teng huquqqa ega ekanliklarini ifodalaydi. Davlat ta’limiy siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilar:

Ta’lim va tarbiyani insonparvarlashtirish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida uning ma’naviy-axloqiy ehtiyojlari, xohish-istiklari va qiziqishlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ya’ni, ta’lim-tarbiya jarayoni shaxsning har tomonlama kamol topishini ta’minlashga yo’naltiradi, uning shaxsiga nisbatan hurmat bilan yondashiladi.

Ta’lim va tarbiyani demokratlashtirish ta’lim mazmunining ochiqligi, o‘quv materiallari, ta’lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, milliy-hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, shuningdek tarbiya jarayonining demokratik g‘oyalarga muvofiq tashkil etilishini anglatadi. Tamoyil mazmuniga hamda o‘quvchilarning xohishlari ga ko‘ra dars jadvaliga qo‘srimcha fanlar kiritiladi, yuqori sinflarda muayyan fanlar chuqurlashtirilib o‘rgatiladi, fakultativ mashg‘ulot va to‘garaklar tashkil etiladi, darslarning yakka va guruhli shaklda bo‘lishiga e’tibor qaratiladi.

Ta’limning uzlusizligi va izchilligi uzlusiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘qitish o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlik asosida yo‘lga qo‘yilishini ifodalaydi. Umumiy o‘rta ta’lim maktabalarining o‘quv dasturlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining, o‘z navbatida, ularning o‘quv dasturlari oliy o‘quv yurti o‘quv dasturlari bilan mutanosiblikda yaratilib, har biri o‘zidan avvalgi bosqichda o‘zlashtirilgan ma’lumotni boyitadi va rivojlantiradi.

Umumkasbiy fanlar tarkibiga kiruvchi “Umumiy pedagogika” moduli bo‘yicha quyidagi mavzularni o‘z ichiga oladi. Ya’ni, “O’zbekistonda ta’lim tizimi. Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rnii”, “Pedagogika fanining ilmiy izlan-

ish metodologiyasi va metodlari”, “Rivojlanishning asosiy qonuniyatlar”, “Didaktika – ta’lim nazariyasi”, “Ta’limning mazmuni”, “O‘qitish jarayoni”, “O‘qitish metodlari”, “Kreativ ta’lim”, “Tarbiya nazariyasi va usullari”, “Pedagogika tarixining maqsad va vazifasi. Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar”, “VII asrdan XIV asrgacha bo‘lgan davrda maktab, tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti”, “Sharq uyg‘onish davri va unda ta’lim-tarbiya masalalari”, “Sharq pedagogik ta’limotida ta’limiy-axloqiy qarashlar”, “XIV–XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar”, “XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar”, “Xorijiy mamlakatlarda ilg‘or pedagogik g‘oyalar. G‘arbiy Yevropada maktab, maorif hamda pedagogik fikr taraqqiyoti”, “Pedagogik mahorat va uning o‘qituvchi faoliyatidagi ahamiyati”, “Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi” mavzularidan iboratdir.

1-mavzu. O‘zbekistonda ta’lim tizimi. Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rnini (ma’ruza)

Mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasida uzlusiz ta’limni takomillashtirish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Ana shu maqsadda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi.

Har qanday jamiyatning kuchi fuqarolarning ma’naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma’naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta’lim tizimining mazmuni, shaxsnинг har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog‘lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mohiyati, shuningdek aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e’tiqodlari asosida shakllantiriladi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qanday hujjat? Uning mazmunda qanday g‘oyalar ifoda etilgan?

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni g‘oyalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir¹.

Dasturning maqsadi – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy

¹ Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi // oliy ta’lim: me’yoriy hujjatlar to‘plami.
– Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. 2001. – 20-bet.

va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Ushbu maqsadni ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobjiy hal qilinishini nazarda tutadi. Ya'ni:

– O'zbekiston Respublikasining “Ta'lism to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq ta'lism tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lism muassasalari hamda ta'lism va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lism tizimini yagona o'quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

– ta'lism va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirilayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

– kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

– kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

– ta'lism oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

– ta'lism va kadrlar tayyorlash, ta'lism muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

– yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'lismning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

– ta'lism, fan, ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek nodavlat tuzilmalari, korxonalar

va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

– uzlusiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag’lar, shu jumladan chet el investitsiyalarini jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotda tadbiq etish;

– kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonini qamrab oladi, bakli ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o’z ichiga oladi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzlusiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o’zaro hamkorligi, ular o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik asosida “yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi” mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi.

Milliy modelning o’ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to‘qqiz yillik umumiyligi o’rta hamda uch yillik o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limini joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa, o’z navbatida, umumiyligi ta’lim dasturlaridan o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga o’tilishiga zamin yaratadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlari quyidagilardan kiradi:

1. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyektiv va obyektiv, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Shaxs uzlusiz ta’lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarini o’zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek o’zida ijtimoiy ta’sirlar yordamida ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o’zlashtirilgan bilim, faoliyat ko’nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo’lish uchun shaxs o’z oldiga muayyan maqsadni qo’ya olishi hamda unga erishish yo’lida tinim-

siz izlanishi, o‘qib-o‘rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo‘lib shakllanadi.

2. Davlat va jamiyat ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Davlat va jamiyat ta’lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash yo‘lidagi faoliyatini ham uyg‘unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi: fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o‘z malakasini oshirish huquqlarning ro‘yobga chiqarilishiga; majburiy umumiy o‘rta ta’lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta’lim olish yo‘nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini olishga; davlat grantlari yoki to‘lov-kontrakt asosida oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni olish huquqiga; davlat ta’lim muassasalarini mablag‘ bilan ta’minlashga; ta’lim oluvchilarining o‘qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvin rivojlantirishga; ta’lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga; sog‘liq va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning ta’lim olishiga.

3. Uzluksiz ta’lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari, davlat ta’lim standartlari, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasini o‘z ichiga oladi.

Uzluksiz ta’lim O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo‘lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma’naviy boy shaxsni shakllantirish va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun sharoitlarni yaratadi.

Uzluksiz ta’lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim Davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta’lim ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi.

4. Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi, undan foydalananuvchi, ilg'or pedagogik, axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi sanaladi.

5. Ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta’minlash jarayonining qatnashchisi.

“Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo‘nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyor-garligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarni ilgari suradi, ta’limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi”.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasida uzlusiz ta’lim tizimini takomillashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etildi. Respublikaning “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida uzlusiz ta’lim tizimining mohiyati, yo‘nalishlari, ta’lim mazmuni, ta’limning huquqiy asoslari batafsil yoritilgan.

Ta’lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor soha deb e’tirof qilindi. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari fuqarolarning ijtimoiy kelib chiqishi, irqi, tili, e’tiqodi, ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar ta’lim olishda teng huquqqa ega ekanliklarini ifodalaydi. Davlat ta’limiy siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilar:

Ta’lim va tarbiyani insonparvarlashtirish shaxsning ijodiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon yaratadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida uning ma’naviy-axloqiy ehtiyojlari, xohish-istiklari va qiziqishlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ya’ni, ta’lim-tarbiya jarayoni shaxsni har tomonlama kamol topishini ta’minlashga yo‘naltiradi, uning shaxsiga nisbatan hurmat bilan yondashiladi.

Ta’lim va tarbiyani demokratlashtirish ta’lim mazmunining ochiqligi, o‘quv materiallari, ta’lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, milliy-hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, shuningdek

tarbiya jarayonining demokratik g'oyalarga muvofiq tashkil etilishini anglatadi. Tamoyil mazmuniga hamda o'quvchilarining xohishlari ga ko'ra dars jadvaliga qo'shimcha fanlar kiritiladi, yuqori sinflarda muayyan fanlar chuqurlashtirilib o'rgatiladi, fakultativ mashg'ulot va to'garaklar tashkil etiladi, darslarning yakka va guruhli shaklda bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

Ta'larning uzluksizligi va izchilligi uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitish o'zaro aloqadorlik, bog'liqlik asosida yo'lga qo'yilishini ifodalaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktabalarining o'quv dasturlari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining, o'z navbatida, ularning o'quv dasturlari oliy o'quv yurti o'quv dasturlari bilan mutanosiblikda yaratilib, biri o'zidan avvalgi bosqichda o'zlashtirilgan ma'lumotni boyitadi va rivojlantiradi.

Umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining majburiyligi o'quvchilarining imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi, kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olin-gan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallash imkoniyatini yaratishni ifodalaydi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining ixtiyoriyligi yangi turdag'i o'quv muassasalarida ta'lim olish yo'nalishining o'quvchi tomonidan ixtiyoriy tanlanishi mumkinligini anglatadi. Akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olishni o'quvchilar o'z iqtidorlari va xohish-istiklariga ko'ra tanlaydilar.

Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi mamlakatda ta'lim taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo'lib, u fan-texnika, madaniyatning yutuqlariga bog'liq holda rivojlanib borishini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (4-modda) da fuqarolar millati, tili, jinsi, yoshi, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, mavqeい, xizmat turi, turar joyi, respublika hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar bilim olish huquqiga ega ekanligi aytildi. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi tamoyili aynan mana shu

holatni yoritishga xizmat qiladi. Ushbu tamoyil, shuningdek chet ellik fuqarolarning respublika hududida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega ekanligini ham ifodalaydi. O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘limgan shaxslar bilim olishda respublika fuqarolari bilan teng huquqlarga ega bo‘ladilar.

Ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (7-modda) da o‘z ifodasini topgan. Davlat ta’lim standartlari (DTS) umumiyligida o‘rtalik, o‘rtalik maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuni, si-fatiga qo‘yiladigan talablarni belgilab beradi. Davlat ta’lim standartlarini bajarish barcha ta’lim muassasalari uchun majburiyidir. Biroq, ta’lim muassasalari Davlat ta’lim standarti asosida o‘quv dasturlari variantini ishlab chiqib, undan foydalanishlari mumkin.

Bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri sanalib, ta’limning barcha bosqichlarida bu tamoyilga to‘la amal qilinadi. Ta’lim oluvchilarning iste’dod va qobiliyatlari davlat tomonidan moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirilib boriladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. “Ta’limning uzviyligi va uzlucksizligi” deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbekistonda ta’lim tizimi bo‘yicha islohotlarni keltiring.
3. Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rnini haqida fikringizni bildiring.

**1-mavzu. O‘zbekistonda ta’lim tizimi. Hozirgi davrda o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rnini
(amaliy mashg‘ulot)**

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan quyidagi mashqni bajaring.



Mashq

**Muammoli vaziyat
Bugungi kunda ta’lim tizimiga qanday yangi
talablar qo‘yilmoqda?**

2-topshiriq. Quyidagi terminlarni ketma-ketlikda tartib asosida joylashtiring.

Termin	Ta’rif
Ta’lim metodi	Ta’lim jarayonining umumiy va aniq maqsadlari, o‘quv materiali mazmunidan iborat
Texnologik jarayon	Ta’lim texnologiyasi (ingl. “an educational technology”) – ta’lim (o‘qitish) jarayonining yuksak mahorat, san’at darajasida tashkil etilishi
Ta’lim texnologiyasi	O‘quv jarayonini tashkil etish, boshqarish usullari, o‘qituvchi, o‘quvchi faoliyati, o‘quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi
Ta’lim jarayoni mazmuni	O‘quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo‘lsa, ta’lim metodikasi esa, muayyan o‘quv predmetini o‘qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimi

3-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga mazmun jihatidan to‘g‘ri keladigan jumlanı yozing.

1. Ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi mamlakatda taraqqiyotining rivoji ilmiy asoslarga ega bo‘lib, u fan-tex-

nika, madaniyatningbog‘liq holda rivojlanib borishini anglatadi (ta’lim, tarbiya, texnologiya, yutuqlariga, mohiyatiga, ahamiyatiga).

2. Ta’lim va tarbiyani demokratlashtirish ta’lim mazmunining ochiqligi,ta’lim shakl va metodlarining xilma-xilligi, milliy-hududiy xususiyatlarning inobatga olinishi, shuningdek tarbiya jarayonining demokratik muvofiq tashkil etilishini anglatadi (o‘quv materiallari, o‘qitish texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, g‘oyalarga, fikrlar, mavzular).

3. Ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan *qo‘yiladigan belgilovchi asosiy buyurtmachi,tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta’minalash jarayonining qatnashchisi (talablarni, vazifalarni, maqsadlarni, kadrlar, shaxslar, jamoa).

4. Davlat va jamiyat tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir (ta’lim, tarbiya, islohot, nazorat, tahlil, monitoring).

2-mavzu. Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari (ma'ruza)

Pedagogika (yunoncha “paidagogike” – “paidagogos” “bola” va “yetaklayman”) ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, shaxsni shakkantirishga qaratilgan tizimli faoliyat mazmuni, ta’lim, ijtimoiy tarbiyaning umumiyligini qonuniyatlari, shakllari, metodlari, vositalari, yagona ijtimoiy maqsad asosida yosh avlodni milliy istiqloq o‘yasi ruhida tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi. Abdulla Avloniy tushunchani “bola tarbiyasining fani” (“pedagogiya”) deb ataydi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihatni, uni o‘qitish va tarbiyalashga e’tiborni qaratadi. Shu bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Ta’lim **umumiy** va **maxsus** ta’lim kabi turlarga ajratiladi. Umumiy Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlaridan yana biri – bu tarbiya nazariyasi sanaladi. Tarbiya nazariyasi bevosita tarbiya jarayonini o‘rganadi.

Ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy, ekologik va jinsiy tarbiya kabi yo‘nalishlarda tashkiletildi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Ma’lumki, har bir fan o‘zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e’tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha **kategoriya** deb ataladi.

Pedagogika fanining **asosiy kategoriyalarini** (kategoriyalar matnda qoraytirilib ko‘rsatilgan) quyidagilar hisoblanadi:

Pedagogik fanlar tizimi

1. Pedagogika nazariyasi – ta’lim yoshidagi bolalar, o’smirlar va o’spirinlarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish masalalarini o‘rganadi.

2. Pedagogika tarixi – ta’lim-tarbiyaga oid pedagogik fikrlarning rivojlanish, taraqqiy etish tarixini, shaxsni o‘qitish va uni tarbiyalashning tarixiy shakllarini, shuningdek asrlar davomida pedagogik jarayonda qo‘llanilib kelingan metod va vositalarni o‘rganadi.

3. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

4. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi – boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarini tarbiyalash, ta’lim berish, ularning o‘ziga xos psixologik, fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

5. Korreksion (maxsus) pedagogika – rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalash va o‘qitish bilan bog‘liq muammolarni o‘rganadi. Korreksion pedagogika tarkibiga turli sohalar kiradi. Ya’ni:

6. Surdopedagogika va surdopsixologiya – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

7. Oligofrenopedagogika va oligofrenopsixologiya – aqli zaif bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

8. Tiflopedagogika va tiflopsixologiya – ko‘rish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

9. Logopediya va nutqiy buzilishlar psixologiyasi – nutqi, motorli-harakatlanish doirasida murakkab nuqsonlar bo‘lgan bolalar (ko‘r, soqov va kar bolalar) ni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash masalalarini o‘rganadi.

10. Metodika – xususiy fanlarni o‘qitish xususiyatlarini o‘rganadi.

11. Pedagogik mahorat – bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

12. Pedagogik texnologiya – ta’lim va tarbiya jarayonida zamонавиу pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

13. Ijtimoiy pedagogika – shaxsni ijtimoiylashtirish jarayoniga salbiy ta’sir etuvchi omillarni, ularni bartaraf etish yo’llarini, ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar toifalariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy-pedagogik yordam mohiyatini, turlari, shakl, metod va vositalarini o‘rganadi.

14. Kasbiy pedagogika – ta’lim oluvchilarga muayyan kasb yoki hunar yo‘nalishida maxsus bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, kasbiy faoliyatni malakali tashkil etish hamda kasbiy mahoratni takomillashtirish masalalarini o‘rganadi.

15. Ta’lim menejmenti – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, boshqarish, nazorat qilish, istiqbolni belgilash masalalarini o‘rganadi.

16. Qiyosiy pedagogika – turli xalqlarning shaxsni tarbiyalashga oid pedagogik qarashlari, ta’lim-tarbiya tizimi, pedagogik ta’limotlarning mohiyati, shuningdek jahon ta’limiga xos bo‘lgan samarali shakl, metod, vosita va innovatsion yondashuvlarni qiyosiy-genetik jihatdan o‘rganadi.

17. Konfliktologiya – ta’lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik muammolar, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar mohiyati, ularni samarali bartaraf etish yo’llarini o‘rganadi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma’lum pedagogik hodisasing muayyan vaziyatlarda namoyon bo‘lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Ma’lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, uning umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqati nazardan pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o‘rtasida aloqadorlik mavjud.

1. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, qarash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. Iqtisodiyot nazariyasi – ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘quv binolarini qurish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamонавиу texnologiyasi.

yalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika (axloqshunoslik) – shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rinni tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rinni tutadi.

5. Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nallishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Fiziologiya – o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.

7. Gigiena – o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.

8. Psixologiya – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.

9. Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarning dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek xalq pedagogikasi g'oyalarni kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.

10. Madaniyatshunoslik – o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

11. Tabiiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.

930333

12. Ma’naviyat asoslari – jamiyat, inson va ma’naviyat o’rtasi-dagi munosabatlarni, ma’naviyatning jamiyat taraqqiyoti, inson on-gini rivojlanishidagi roli, fuqarolarni ma’naviy tarbiyalash omillarini o’rganadi.

Ilmiy pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o’tkazish.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g’oyasi, maz-muni, natijalari hisobiga ta’minlanadi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o’rganish, mavjud ko’rsatkichlar vositasida sodir bo’lish sabablarini aniqlash, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etishni taqo-zo etadi. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlar shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo’nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyekti va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tek-shirish va bilish usullaridir. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, izchillik, uzlusizlik, tizimlilik va aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega jarayon.

Zamonaviy sharoitda pedagogik yo’nalishda tadqiqotlarni olib borishda turli metodlardan foydalanilmoqda. Quyida mazkur metodlarning mohiyati to‘g’risida qisqacha so‘z yuritiladi.

Pedagogik tahsil. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metod ni qo’llashdan ko’zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo’nalishlarda o’rganilganlik darajasi-ni aniqlashdan iborat bo’lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g’oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Suhbat metodi. Pedagogik kuzatish chog’ida ega bo’lgan ma’lumotlarni boyitish, vaziyatga to‘g’ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlar imkoniyatlarini muammoning yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat *individual, guruhli hamda ommaviy shaklda* o’tkaziladi. Suhbat ja-rayonida o‘quvchilarning imkoniyatlari to‘la namoyon bo’lishiga erishish muhim.

Anketa (frans. “tekshirish”) metodi yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to‘plangan dalillar boyitiladi. Bu metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Savollarga javoblar, odatda, yozma ravishda olinadi. O‘rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo‘ladi: 1) ochiq turdagи savollar (erkin, batafsil javob berish uchun imkon yaratadigan savollar); 2) yopiq turdagи savollar (“ha”, “yo‘q”, “qisman” yoki “ijobiy”, “qoniqarli”, “salbiy” va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlashga imkon beradigan savollar). Anketa metodini qo‘llashda ham bir qator shartlar- ga amal qilish zarur.

Intervyu – respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammo- ning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta‘minlaydi. Intervyu respondent e’tiboriga turkum savollar- ni havola etish asosida o‘tkaziladi. Intervyu jarayonida olingen savol- larga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta’lim muassasalarini faoliyati maz- munini yorituvchi ma’lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim muassasalarida uzliksiz ta’limni tashkil etishga oid hujjatlar talablarining bajarilish holatini o‘rganish, erishilgan yutuq hamda yo‘l qo‘ylgan kamchiliklarni aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalash- tirish va ta’lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo‘llaniladi.

Test metodi – respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o‘z mohiyatiga ko‘ra quyidagi savollardan iborat bo‘ladi: 1) ochiq turdagи savollar (batafsil javob berish imkonini beradigan savollar); 2) yopiq turdagи savollar (“ha” yoki “yo‘q”, “ijobiy” yoki “salbiy” tarzdagi javoblarga asoslanadigan savollar); 3) to‘g‘ri javob variantlari qayd etilgan savollar (to‘g‘ri deb topilgan javob varianti belgilanadi).

Bolalar ijodini o‘rganish metodi – o‘quvchilarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, ma’lum fan sohalari bo‘yicha BKM darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning ijodiy ishlari – kundalik, insho, yozma ish, referat va hisobotlari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Metod ma’lum o‘quvchiga xos bo‘lgan individual imkoniyatni ko‘ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Pedagogik kuzatishni qo‘llash jarayonida ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammoli holat aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma’lumotga ega bo‘linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzlusiz, izchil va tizimli amalgalashirilsa, kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta’lim-tarbiya sifatini oshirish va o‘quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yana-da oshadi.

Pedagogik tajriba (“eksperiment” lotin. – “tajriba qilib ko‘rish”) metodidan muammoning yechimini topish imkoniyatlarini o‘rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, berilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o‘z in‘ikosiga ega bo‘la olishi va ularning samaradorligini aniqlash maqsadida foydalilaniladi. Pedagogik tajribaning quyidagi turlari mavjud:

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Matematik statistika tajriba-sinov ishlari, shuningdek umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi.

Pedagogika fanining metodologiyasi, metodologik madaniyat haqida tushuncha. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’limi.

Mavzu yuzasidan quyidagi savol va topshiriqlar haqida o‘ylab ko‘ring.

1. Malaka oshirish va qayta tayyorlash ta’limining maqsadi ni-madan iborat?

2. “Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlar” mavzusini o‘qib o‘rganing va individual ravishda fikringizni bildiring.

3. Pedagogika fanining metodologiyasi haqida fikr bildiring va uning vazifalarini sanab o‘ting.

**2-mavzu. Pedagogika fanining ilmiy izlanish
metodologiyasi va metodlari
(amaliy mashg‘ulot)**

I-topshiriq. Mavzu yuzasidan quyidagi mashqni bajaring.



Mashq

**Muammoli vaziyat
Bugungi kunda pedagogik ilmiy tadqiqot
metodlari haqida nimalarни bilasiz?**

2-topshiriq. Berilgan test topshiriqlarini bajaring.

1. Pedagogika faniga qaysi qatorda to‘g‘ri ta’rif berilgan?

a) Pedagogika tarbiyaning nazariy asoslarini tadqiq etuvchi ijtimoiy gumanitar fan

b) Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatları, prinsiplari, shakl va metodlari haqidagi gumanitar fan

s) Pedagogika ta’lim jarayonining mazmuni, qonuniyatları, metodlarini o‘rganuvchi, ijtimoiy, umumkasbiy fan

d) Pedagogika ta’lim-tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, qonuniyatları, metodlarini o‘rganuvchi ijtimoiy, umumkasbiy fan

2. Demokratik jamiyat qanday pedagogikaga tayanadi?

- a) demokratik tarbiya va avtoritar pedagogikaga
- b) avtoritar pedagogikaga va ilmiy, insonparvar tarbiya tizimiga
- s) totalitar tarbiya va demokratik pedagogikaga
- d) demokratik pedagogika va demokratik tarbiyaga

3. Pedagogika fanining predmeti nima?

- a) yosh avlodni o‘qitish, tarbiyalash, nazorat qilish
- b) ta’lim-tarbiya, ma’lumotning mohiyati, qonunlarini ishlab chiqish
- s) ta’lim-tarbiya va shaxsni shakllantirish jarayonining qonuniyat-lari va prinsiplarini o‘rganish
- d) inson shaxsini rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq qilish asosida tarbiya metodikasini aniqlash

4. Ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning mohiyati nimadan iborat?

- a) inson shaxsini har tomonlama rivojlantirish, o‘stirish, parvarish qilish
- b) yosh avlodga eng yaxshi umuminsoniy sifatlarni singdirish
- s) insoniyat to‘plagan ijtimoiy-ma’naviy tajribalarni yosh avlodga o‘rgatish orqali ularni hayotga, mehnatga tayyorlash
- d) yosh avlodni ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash

3-topshiriq. Nima uchun “Pedagogik tadqiqot metodlari” dolzarb bo‘lmoqda? FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

FSMU texnologiyasi

(F) – Fikringizni bayon eting.

(S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating.

(M) – Ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

(U) – Fikringizni umumlashtiring.

(F) – Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik va aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega jarayon.

(F) – Kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizim.

(F) – Vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizim.

(S) – Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlar shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'naliшlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jaryonnинг ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

(S) – Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlarning ta'riflariga bo'lган turli yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, u o'qitishning didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog'langan.

(S) – Pedagogik ilmiy tadqiqot fan va ishlab chiqarish hamda ta'lim-tarbiya jarayonlari oraliq'idan o'rinn oladi, u o'qitishning didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog'langan.

(M) – Pedagogik kuzatish chog'ida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, vaziyatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammoning yechimiga jalb etishga yordam beradi.

(M) – Hozirgi kunda barcha ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga o'qitish jarayonida faollikni taqdim etmoqda.

(M) – Muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi.

(U) – Maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash, savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash.

(U) – Pedagogik masalalarni yechishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir.

(U) – Oldindan loyihalashtirilgan bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalalarni yechishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o'zaro bog'langan harakatlari tizimidir.

3-mavzu. Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari (ma'ruza)

Shaxsning rivojlanishi individning fiziologik, ruhiy va intellektual o'sishini ta'minlovchi faoliyat, xatti-harakatlarning miqdor va sifat jihatdan o'zgarishini ifodalovchi jarayon.

Shaxsning rivojlanganlik darajasini belgilovchi holatlar: uning fiziologik, ruhiy va intellektual o'sishini ta'minlovchi faoliyat va xatti-harakatlarning miqdor va sifat jihatdan o'zgarishi.

Go'daklik davrining o'ziga xos xususiyatlari: olti oydan so'ng "g'o'ldirab" so'zlashga intiladi, atrofdagilarning gaplarini tushuna boshlaydi, asta-sekin passiv nutq shakllanadi, 2 yoshga qadam qo'ygach faol nutqni o'zlashtiradi. Nutq o'sishi bilan bola borliqni anglay boshlaydi. Bolaning xatti-harakatlari, xulq-atvorida hissiy kechinmalar namoyon bo'la boshlaydi. Uning harakatida ovqatlanish, issiq yoki sovuqni sezish kabi hissiy ta'sirlar kuzatiladi. Bola 2 yoshga to'lganda undagi ixtiyorsiz faollik asta-sekin ixtiyoriy faollik bilan almashadi. U oddiy yumushlarni bajara oladi. Unda ixtiyoriy diqqat o'sadi va "men"lik yuzaga keladi. U o'zini atrofdagi tengdoshlari bilan solishtirib, ulardan o'zini ajratib, "mening o'zim", "men istayman", "men istamayman", "men o'zim bajaraman" yoki "men buni bajara olmayman" kabi so'zlar ni qo'llaydi. Atrofdagi narsalarga ta'sir ko'rsatib, ularga o'z mu nosabatini bildiradi.

O'yinlar asosida maktabgacha ta'lim yoshi bolalarida ijodiy xayol, zehn, fahm-farosat, topqirlilik sifatlari tarbiyalanadi. O'yin yordamida hissiyotlari shakllanadi: o'yin davrida o'zlarini tetik his qiladilar, erishilayotgan yutuqdan zavqlanadilar. Jamoaviy o'yinlar orqali bolalar o'rtoqlik va do'stlik hislari tarkib topadi. Rolli, muayyan qoidalarga asosidagi o'yinlar kuzatuvchanlik qobiliyatini o'stiradi, xotirani mustahkamlashga yordam beradi.

Shaxs	Individ
Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan ijtimoiy mavjudot	Individ (lotincha "individium" so'zidan olingan bo'lib, "bo'linmas", "yagona" ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot

Shaxsning individual xususiyatlari – shaxsning yo'nalganligi, qiziqishlari, xarakteri, uni boshqalardan ajratib turadigan aqliy kamoloti va faoliyatining o'ziga xos, barqaror, muhim xususiyatlari

Shaxsning yosh xususiyatlari – muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar

Faoliyat – ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etish yo'lida shaxs tomonidan amalga oshirilayotgan kundalik va kasbiy xatti-harakatlarning muayyan shakli

Rivojlanish – mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, cski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi

Shaxs rivojlanishining muhim xususiyatlari

Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘yin faoliyatining o‘rnini endi o‘qish faoliyati egallaydi. O‘qib-o‘rganish bolaning vazifasi, ijtimoiy burchi bo‘lib qoladi. O‘qish jarayonida u darsliklarini va o‘quv qurolarini saranjom saqlash, o‘z vaqtida o‘rnidan turish, maktabga belgilangan vaqtida borish, uyg‘a berilgan vazifalarni bajarish kabilalar yuzasidan ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi. Ushbu jarayonda o‘quvchi tobora mas’uliyatli bo‘lib boradi. Bilimlar bolaning saviyasini o‘stiradi, aqliy rivojlanishini ta’minlaydi, sezgilarini va irodasining o‘sishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy o‘smir ruhiyatida aks etuvchi holatlar.

1. Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyatini shakllantirish tab’lab etiladi, bilishga, kitob o‘qishga qiziqish ortadi.
2. O‘z-o‘zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o‘zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o‘ylab ko‘ring.

1. Shaxs rivojlanishining muhim xususiyatlari nimada deb o‘ylaysiz?
2. Shaxsnинг individual mohiyatli belgi va xususiyatlari nimada?
3. “Rivojlanishning asosiy qonuniyatları” matn ma’ruzani o‘rganib chiqing. Muhit, irlisyat, ta’lim, tarbiya, shaxsiy faoliyat rivojlanishining yosh va individual xususiyatlari kelib chiqishi, uning sabab-lari nimada deb o‘ylaysiz?

3-mavzu. Rivojlanishning asosiy qonuniyatları (amaliy mashg‘ulot)

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan quyidagi mashqni bajaring.



Mashq

Muammoli vaziyat

O‘qitish jarayoniga shaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar nimada deb o‘ylaysiz?

2- topshiriq. Quyidagi terminlarni ketma-ketlikda tartib asosida joylashtiring.

Termin	Ta’rif
Shaxs	Psiyologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan ijtimoiy mavjudot
Individ	Oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi
Faoliyat	Ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etish yo‘lida shaxs tomonidan amalga oshirilayotgan kundalik va kasbiy xatti-harakatlarning muayyan shakli
Rivojlanish	(lotincha “individuum” so‘zidan olingan bo‘lib, “bo‘linmas”, “yagona” ma’nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot

3-topshiriq. Shaxsning rivojlanganlik darajasini belgilovchi holatlar nima uchun kerak?. Nima uchun? texnikasi orqali tahlil qiling.

1. Shaxsning rivojlanganlik darajasini belgilovchi holatlar *nima uchun* kerak?

Shaxsning fiziologik, ruhiy va intellektual o‘sishini ta’minlovchi faoliyat va xatti-harakatlarining miqdor va sifat jihatdan o‘zgarishi uchun kerak.

Ta’lim jarayonini shaxsni faollashtirish uchun kerak.

Shaxsni faollashtirish o‘quvchilarda tafakkurni rivojlantirish uchun kerak.

2. Shaxsning individual xususiyatlari *nima uchun* kerak?

Shaxsning yo‘nalganligi, qiziqishlari, xarakteri, uni boshqalardan ajratib turadigan aqliy kamoloti va faoliyatining o‘ziga xos, barqaror, muhim xususiyatlari.

Ta’lim jarayonida shaxsni faollashtirish o‘quvchilarda tafakkurni va idrokni rivojlantirish uchun kerak.

O‘qituvchi tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning amalga oshirilishi uchun kerak.

4-mavzu. Didaktika – ta’lim nazariyasi (ma’ruza)

Didaktika (ta’lim nazariyasi: yun. “didaktikos” o’rgatuvchi, “didasko” esa o’rganuvchi) ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatları, o’qituvchi va o’quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijsasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’llari va hokazo muammo-lar) ni o’rganuvchi fan.

Didaktika (ta’lim nazariyasi) ning predmeti o’qitish (o’qituvchi faoliyati) va bilim olish (o’quvchining o’rganish faoliyati) ning o’zaro bog‘liqligi va aloqadorligi jihatlarini o’rganishdan iborat.

Didaktikaning *asosiy kategoriyalari* quyidagilardan iborat:

Bilim shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

Ko‘nikma olingen bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig‘indisi.

Malaka ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Ta’lim o’quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o’stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon.

Ta’lim jarayoni o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o’zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.


Bilim olish idrok etish, o’rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarning mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.

Dars bevosita o’qituvchi rahbarligida muayyan o’quvchilar guruhni bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli.

Ta’lim mazmuni davlat ta’lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma’lum sharoitda muayyan fanlar bo‘yicha o’zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar, shuningdek shaxsning aqliy va jis-

moniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odbi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Didaktikaning asosiy vazifalari



Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o'ylab ko'ring.

1. Didaktikaning asosiy kategoriylarining ahamiyati nimada?
2. “**Didaktika – ta'lim nazariyasi**” matn ma'ruzani o'rganib chiqing. Esse yozing.
3. O'qituvchi tomonidan shaxsga yo'naltirilgan ta'limning amalga oshirilishi va unda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati nimada?

4-mavzu. Didaktika – ta'lim nazariyasi (amaliy mashg'ulot)

I-topshiriq. Mavzu yuzasidan mashqni bajaring.



Mashq

Muammoli vaziyat
Didaktika haqida qanday tushunchaga egasiz?
Uning mohiyatini tushuntirib bering?

2-topshiriq. Quyidagi terminlarni ketma-ketlikda tartib bilan joylashtiring.

Termin	Ta'rif
Didaktika	Olingen bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi
Bilim	Shaxsnинг ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui
Ko'nikma	Ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi
Malaka	(ta'lism nazariyasi: yun. "didaktikos" o'rgatuvchi, "didasko" esa o'rganuvchi)


3-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mazmun jihatidan to'g'ri keladigan so'zni yozing.

1. Boshlang'ich ta'lism pedagogikasi – boshlang'ich sinflar o'quvchilarini tarbiyalash, ta'lism berish, ularning o'ziga xos fiziologik xususiyatlarini tadqiq etish, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy kamolotga yetkazish o'rganadi (psixologik, pedagogik, falsafiy, masalalarini, vazifalarini, ishlarini).

2. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlar shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta bilimlarni berish tamoyillari, obyektiv va subyektiv aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir (ilmiy, texnikaviy, falsafiy, omillarini, sabablari, harakatlarini).

3. Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, izchillik, tizimlilik va aniq kabi xususiyatlarga ega jarayon (uzluksizlik, uzviylik, ilmiylik, maqsad, talab, nazorat).

Ta'lim mazmunini belgilovchi ustuvor g'oyalar




5-mavzu. Ta’limning mazmuni (ma’ruza)


Davlat ta’lim standartlari o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan me’yoriy hujjat.

Darslik muayyan o‘quv fani bo‘yicha ta’lim maqsadi, o‘quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni beruvchi manba bo‘lib, u mazmuni va tuzilishiga ko‘ra fan bo‘yicha yaratilgan o‘quv dasturiga mos keladi.

O‘quv rejasি me’yoriy hujjat bo‘lib, unda har bir o‘quv predmetining mazmuni ochib beriladi va o‘quv yilida o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar hajmi ko‘rsatib beriladi.



Bosqichlar




Bilimlarni egallash bosqichlari

Ta'lif tamoyillari – o'qitish asosida yotadigan, ta'lif va uni tashkil etish jarayonini tashkil etish mazmuni, shakli, metod va vositalarini taulanishini belgilaydigan boshlang'ich asoslardir

Standartlashtirish (davlat miqyosida o'rnatilgan yagona qoida va talablarga mos kelish) – bu majburiy o'quv fanlari to'plamini soatlari aniq belgilangan hajmini belgilash. Ta'lif standartlari yordamida ta'lif muassasalarida o'quv ishlarining normativlari moslashtiriladi, o'quvchilar bilimlarini baholashning yagona mezonlari ishlab chiqiladi.

Ta'lif mazmunini belgilovchi meyoriy hujjatlar. Ilmiy pedagogik adabiyotlarda ta'lif mazmunini shakllantirishning quyidagi uch bosqichi ko'rsatiladi: 1) umumiy nazariy bosqich; 2) o'quv bosqichi; 3) o'quv materialini o'zlashtirish bosqichi (ta'lif mazmunining o'quv rejasi, o'quv dastur va darsliklar kabi me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topishi).



Ta’lim mazmunini belgilovchi ustuvor g‘oyalar

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o‘ylab ko‘ring.

1. Davlat ta’lim standartlarining tarkibiy tuzilishi qanday?
2. “Ta’limning mazmuni” nomli matn ma’ruzani o‘rganib chiqing O‘z fikr-mulohazalaringizni bayon eting.

5-mavzu. Ta’limning mazmuni (amaliy mashg‘ulot)

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan mashqni bajaring.

 Mashq	<p style="text-align: center;">Davlat ta’lim standarti to‘g‘risida qanday ma’lumotga egasiz?</p>
---	---

2-topshiriq. Mavzu yuzasidan berilgan terminlarni ketma-ketlikda joylashtiring.

Termin	Ta’rif
Davlat ta’lim standartlari	Har bir o’quv fanining o’qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g’oyaviy – siyosiy yo’nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir
Darslik	Ta’lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talabarni belgilaydigan me’yoriy hujjat
O’quv rejasi	deb, o’qitiladigan fanlar, o’qitish uchun ajratilgan soatlar va o’quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytildi
O’quv dasturi	tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir

3-topshiriq. Mavzu yuzasidan nuqtalar o’rniga qvada ko’rsatilgan so’zlardan mosini tanlab yozing.

1. Mazkur metoddan o’quv mashg’ulotlarining barcha turlarida o’tilgan mavzuni o’zlashtirganlik darjasini, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o’tkazish uchun, shuningdek yangi mavzuni boshlashdan oldin o’quvchilarning tekshirib olish uchun mo’ljallangan (baholash, saralash, monitoring, bilimlarini, sifatini, natijani).

2. Fikrlashning tarmoqlanishi – bu pedagogik bo’lib, u o’quvchilarning bir mavzuni chuqur o’rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli yoki aniq fikrni erkin va aniq ravishda ma’lum ketma-ketlik bilan uzviy bog’langan holda tarmoqlanishlariga o’rgatadi (strategiya, reja, natija, tushunchaga, mavzuga, ma’lumotga).

3. Hozirgi milliy loyihalar saytida “innovatsion ta’lim” iborasi paydo bo’lmoqda va unda aytilishicha, innovatsion ta’lim yangi bilimlarini yaratish jarayonida amalga oshirishni taqozo etmoqda (o’qitishni, ta’limni o’quv jarayonini).

6-mavzu. O‘qitish jarayoni (ma’ruza)

Metod so‘zi grek. **tadqiqot, maqsadga erishish yo‘li, usuli** deganidir. Bu so‘zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. “Metod – eng umumiy ma’noda – maqsadga erishish usuli, ma’lum tarzda tartibga solingan faoliyat”.

Ta’lim metodlari deyilganda, o‘rganilayotgan materialni egal-lashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo‘yicha o‘qituv-chining o‘rgatuvchi ishi va o‘quvchilar o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari tushuniladi.

Ta’lim usuli – ta’lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o‘zaro bir-biriga bog‘langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog‘lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o‘quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalanilgan bo‘lishi mumkin. Va aksincha, xuddi shu metod turli o‘qituvchilar tomonidan turli usullarda ochib berilishi mumkin.

Qoida – tanlab olingan metod bilan bog‘liqlikda faoliyat usullarini amalga oshirish uchun qulay tarzda harakat qilish zarurligini belgilab beruvchi me’yoriy ko‘rsatmalardir.

Ta’lim metodlarining tasnifi

1. An’anaviy (manbasiga ko‘ra) ta’lim metodlari (Y.I. Golant, N.M. Verzilin va boshqalar).
2. O‘quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi (I.Y. Lerner va M.N. Skatkin).
3. Asosiy didaktik maqsadlariga ko‘ra ta’lim metodlari tasnifi (M.A. Danilov va B.P. Yesipov).
4. Ta’limning binar metodlari (M.I. Maxmutov).
5. Yaxlit yondashuv bo‘yicha ta’lim metodlari tasnifi (Y.K. Babanskiy).
6. Ta’limning interfaol metodlari.

An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lif metodlarining tasnifi



Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Videometod
Hikoya Suhbat Tushuntirish Ma'ruba Munozara	Illyustratsiya Demonstratsiya	Mashq Amaliy Laboratoriya Didaktik o'yin	O'qish O'rganish Reja tuzish Konspekt qilish	Ko'rish O'rganish Nazorat qilish

Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lif metodlari tasnifi

1. yangi bilimlarni egallash metodlari.
2. ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari.
3. bilimlarni amaliyotda qo'lllash metodlari.
4. bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o'ylab ko'ring.

1. O'quv jarayonini tashkil etishning qanday shakllari mavjud?
2. "O'qitish jarayoni" ma'ruzani o'rganib chiqing va u asosida esse yozing.
3. Dars tizimi strukturasining elementlari va tiplari to'g'risida nimalarni bilasiz?

6-mavzu. O‘qitish jarayoni (amaliy mashg‘ulot)

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan mashqni bajaring.



Mashq

**Muammoli vaziyat
Darsga qanday talablar qo‘yiladi?**

2-topshiriq. Ha yoki yo‘q va to‘g‘ri-noto‘g‘ri shakldagi mashqlar

1. Ko‘pincha Sizga nisbatan adolatsizlik qilishayotganday bo‘ladimi?

a) ha

b) yo‘q

2. Siz odamlar bilan doimiy muomalani talab qiladigan ishlarni yoqtirasizmi?

a) ha, faqat shunday ish quvonch keltirishi mumkin

b) yo‘q

3. Sizningcha, fikr yuritishingiz nimasi bilan boshqalarnikidan farq qiladi?

a) intutsiyaning kuchi bilan

b) mantiqiylik, izchilligi bilan

4. Sizda odamning fe’l-atvorini tushunish maqsadida uning yuziga tikilib qarash odati bormi?

a) ha, men doim odamlarga qiziqish bilan qarayman

b) yo‘q, bu men uchun qiziq emas

3-topshiriq. O‘qitish jarayoni va uni amalgalashish qoidalarini “SWOT – TAHLIL” bo‘yicha bajaring.

“SWOT – tahlil” jadvalining nomi inglizcha so‘zlamning bosh harflaridan tuzilgan:

Strengths – kuchli tomoni, tashkillashtirishning ichki manbalari mavjudligi nazarda tutiladi;

Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolarning mavjudligi;

Opportunities – tashkillashtirishdan tashqarida rivojlanish uchun mavjud imkoniyatlar;

Threats – tashqi muhitda tashkillashtirishni muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi xavf-xatarlar.

“SWOT-tahlil” jadvali

S – kuchli	W – kuchsiz
Dars bevosita o'qituvchi rahbarligi-da aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'limgarayonining asosiy shakli sanaladi. Malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantiradigan ta'limgarayonini tashkil etadi.	Dars bevosita kerakli metodlarni o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'limgarayonining asosiy shakli sanaladi. Dars jarayonini tashkil etish va o'tkazish birmuncha ko'proq vaqt tablab etadi.
O'quvchilarning aqliy faoliyatni rivojlantiradigan ta'limgarayonini tashkil etadi.	O'qituvchi differensial va individual yondashuvni tashkil etadi.
O'quv materialini muammolashtirish, faollashtirish, o'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnila va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish. O'quv materialini o'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnila va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish.	Barcha mavzularni bu usuldan foydalangan holda tashkil etib bo'lmaydi. Barcha mavzularni o'qituvchi differensial va individual yondashuvni ishlab chiqmasa, ba'zi passiv o'quvchilar chetda qolib ketadi. O'qituvchi differensial va individual yondashuvni ishlab chiqmasa, ba'zi passiv o'quvchilar chetda qolib ketadi.

7-mavzu. O'qitish metodlari (ma'ruza)

Ta'limning binar metodlari

O'rgatish metodlari	O'rganish metodlari
Axboriy-ma'lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko'rgazmali-amaliy	Ijodiy-amaliy
Tushuntirishli-undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

Yaxlit yondashuvga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi

O'quv axborotini uzatish va idrok etish manbasiga ko'ra	O'quv axborotini uzatish va idrok etish mantig'iga ko'ra	O'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasiga ko'ra	O'quv ishini boshqarish tavsifi bo'yicha
Og'zaki, Ko'rgazmali, Amaliy	Induktiv, Deduktiv	Reproduktiv, Produktiv: muammoli, muammo-li-izlanishli, evristik	O'qituvchi rahbarligida bajariladigan o'quv ishi, O'quvchilarning mustaqil ishlari

O'qishga qiziqishni motivatsiyalash metodlari	O'qishga burch va mas'uliyatni rag'batlantirish metodlari
Bilish faoliyatini tashkil etishga doir o'yinlar, O'quv munozaralar, Vaziyatlarni yaratish	O'rganishning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatiga ishonch hosil qilish, Talab qo'yish, Rag'batlantirish, Ogohlantirish

Nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilishning og‘zaki metodlari	Nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilishning yozma metodlari	Nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilishning amaliy metodlari
Individual so‘rov, Ommaviy so‘rov, Dasturlashtirilgan so‘rov, Og‘zaki o‘z-o‘zini nazorat ishi	Yozma nazorat ishi, Dasturlashtirilgan yozma ish, Yozma o‘z-o‘zini nazorat ishi	Laboratoriya ishi, Laboratoriyали o‘z-o‘zini nazorat ishi

O‘rganilayotganlarini o‘zlashtirishga da‘vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O‘rganilganlarini fikrleshga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan man-tiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B-B-B chizmasi. O‘qitish bo‘yicha qo‘llanma. Bir-biriga o‘rgatish. Bir-biridan so‘rash. Ikki qismli kundaliliklar. Eng asosiy tushunchalar.	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Konseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar gul. Besh daqiqalik esse. O‘n daqiqalik esse.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o‘ylab ko‘ring.

1. Nazariya bilan amaliyat o‘rtasida aloqa, bog‘liqlik haqida nimalarni bilasiz?
2. “O‘qitish metodlari” nomli matn ma’ruzani o‘rganib chiqing.
3. O‘qitish metodlarining tasnifini izohlang.

7-mavzu. O‘qitish metodlari

(amaliy mashg‘ulot)

1-topshiriq Mavzu yuzasidan mashqni bajaring.



Mashq

**Muammoli vaziyat,
o‘qitishning og‘zaki metodlarining ahamiyatli
tomoni nimada deb o‘ylaysiz?**

*2-topshiriq. O‘qitish metodlari qanday? Texnikasi orqali tahlil
qiling.*

1. Didaktik tamoyillar o‘quv jarayonida qanday amalga oshiriladi?

Ta’limning umumiy maqsadi va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, o‘qitishning mazmunini, o‘quv faoliyatini tashkil qilish shakllarini va o‘qitish jarayoni uslubiyatlarini aniqlash bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ta’limning umumiy maqsadi o‘quv faoliyatini tashkil qilish shakllarini va o‘qitish jarayoni uslubiyatlarini aniqlash bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ta’limning umumiy maqsadi va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda aniqlash bo‘yicha amalga oshiriladi.

2. Hozirgi zamon tamoyillari o‘qitish jarayonining qanday tarkibiy qismlarini o‘z ichiga oladi?

Mantiqqa, maqsad va vazifalarga, o‘quv mazmunining shakllanishiga, ta’lim shakli va uslubiyatlarining tanlanishiga, rag‘batlanishiga, rejalashtirish va erishilgan o‘quv natijalarini tahlil qilishga nisbatan talablarga asoslanadi.

Mantiqqa, maqsad va vazifalarga, o‘quv mazmunining shakllanishiga tahlil qilishga nisbatan talablarga asoslanadi.

Mantiqqa, maqsad va vazifalarga, o‘quv mazmunining shakllanishiga, ta’lim shakli va uslubiyatlarining tanlanishiga, o‘quv nati-jalarini tahlil qilishga nisbatan talablarga asoslanadi.

3. Texnologik jarayon qanday tashkil etiladi?

Texnologik jarayon o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati, o‘quv jarayonini boshqarish usullari, o‘quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi.

Texnologik jarayon o‘quv jarayoni diagnostikasini qamrab oladi.

Texnologik jarayon o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati qamrab oladi.

3-topshiriq. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini VENN diagrammasi orqali tahlil qiling.

8-mavzu. Kreativ ta'lim (ma'ruza)

Dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi; o'quvchilar mакtabga yilning bir vaqtida va belgilangan soatlarida keladilar; o'quv mashg'ulotining asosiy birligi dars hisoblanadi; dars odatda muayyan fanlar bo'yicha tashkil etiladi; o'quvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar; o'qituvchi o'quvchilar faoliyatiga rahbarlik qiladi; u o'z fani bo'yicha har bir o'quvchining BKMni baholaydi va yil oxirida o'quvchini keyingi sinfga o'tishi haqida qaror qabul qiladi.

Dars – o'quv faoliyatini tashkil etishning asosiy shakli. Ta'limning turli shakllaridan samarali foydalanish muhim didaktik vazifa sanaladi. Ta'lim amaliyotida ta'limning *jamoaviy* (*ommaaviy*), *guruqli* va *individual* shakllaridan foydalaniladi. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli sanaladi

Bir xil yosh va taxminan bir xil tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan o'quvchilardan tarkib topadi va bu tarkib ta'limning umumiy davrida doimiy tarkibini saqlaydi; o'quv faoliyati yagona yillik reja va dasturga ko'ra turg'un.

Ta'lim turlari

Muammoli ta'lim, mujassamlashtirilgan ta'lim, modul ta'limi, rivojlantiruvchi ta'lim, tabaqalashtirilgan ta'lim, dasturiy ta'lim, kompyuter ta'limi, mustaqil ta'lim, hamkorlik ta'limi, individual ta'lim, faol o'qitish

Zamonaviy sharoitda qo'llanilayotgan ta'lim turlari

O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqich ko'zga tashlanadi:

Tashxislash

Bashoratlash

Loyihalash (rejalashtirish)

Asosiy turlari:

- 1) aralash darslar;
- 2) yangi ma'lumotlarni berish darslari;
- 3) bilimlarini mustahkamlash va takrorlash darslari;
- 4) o'r ganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslari;
- 5) malaka va ko'nikmalarini ishlab chiqish, mustahkamlash darslari;
- 6) bilimlarni tekshirish va tahlil qilish darslari;
- 7) bitta asosiy didaktik maqsadga ega darslar.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o'ylab ko'ring.

1. Kreativ dars tuzilishiga doir metodik tavsiyalar haqida tushunchaga egamisiz?
2. "Kreativ ta'lim" ma'ruzani o'rganib chiqing o'z fikringizni ifoda eting.
3. Ta'lim metodlari deyilganda nimani tushunasiz?

8-mavzu. Kreativ ta'lrim (amaliy mashg'ulot)

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan mashqni bajaring.

 Mashq	Muammoli vaziyat Kreativ darsning ahamiyatli tomoni nimada deb o'ylaysiz?
---	--

2-topshiriq. Kreativ ta'limgning yutuq va kamchliklarini T sxe-masi orqali tahlil qiling.

MANTIQIY FIKR RIVOJLANADI	QO'LLAY OLMASLIK
MUSTAQIL IZLANADI	BOSQICHLI AMALGA OSHIRA OLMASLIK
ERKIN ROLLAR TAQSIMLANADI	BOSQICLI REJALASHTIRA OLMASLIK

O'QUVCHILAR MUSTAQIL QAROR QILADILAR	METODLARNI QO'LLAY OLMASLIGI
DARSDA O'QUVCHILAR MUSTAQIL BO'LADI	TUSHUNTIRA OLMASLIK
O'QUVCHILAR MAHORATINI KO'RSATADI	BAHOLAY OLMASLIK

3-topshiriq. Sizningcha NIMA UCHUN? dars mashg‘ulotlarida o‘yinli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash kerak deb o‘ylaysiz?

Nima uchun?	Javob
O‘quv mashg‘ulotlaridan o‘yinlar va o‘yinli vaziyatlarni qo‘llash NIMA UCHUN amalga oshiriladi?	<p>O‘yin texnologiyalari ta’lim oluvchilarni muayyan jayonga tayyorlash, ularda ma’lum hayotiy vogelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi.</p> <p>O‘yin texnologiyalari ta’lim oluvchilarni muayyan jayonga tayyorlash, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi.</p> <p>O‘yin texnologiyalari ta’lim oluvchilarni hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi.</p>
Sizningcha NIMA UCHUN? dars mashg‘ulotlarida o‘yinli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash kerak deb o‘ylaysiz?	<p>Ta’lim jarayoni ishtirokchilari sifatida turli rollarni bajarish ishtirokchilarga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma’lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai nazaridan yordam beradi.</p> <p>Ta’lim jarayoni ishtirokchilari sifatida pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratish asosida ma’lum faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai nazaridan yordam beradi.</p> <p>Ta’lim jarayoni ishtirokchilari sifatida turli rollarni bajarish ishtirokchilarga faoliyatni samarali tashkil etishga nazariy, amaliy va ruhiy tayyorgarlikka erishish nuqtai nazaridan yordam beradi.</p>
Amaliy o‘yinlar NIMA UCHUN kerak?	<p>Muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o‘yinlar.</p> <p>Muayyan imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o‘yinlar.</p> <p>Muayyan amaliy harakatlarning imkoniyatini beradigan o‘yinlar.</p>

9-mavzu. Tarbiya nazariyasi va usullari (ma’ruza)

Tarbiya nazariyasining mohiyati. Pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlaridan biri – bu tarbiya nazariyasi sanaladi. Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, tarbiyaviy jarayon mazmuni, tamoyillari, qonuniyatlar, uni tashkil etish masalalari, metodikasi, shakllari, metodlari, vositalari, usullari va muammolarini o‘rganadi.

Tarbiya jarayonining natijasi. Tarbiyaning natijasi yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tomonlama bo‘lib, uyush-tirish va rahbarlik, shuningdek, o‘quvchi shaxsining o‘zi tomonidan faollik ko‘rsatilishini taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi rol o‘ynaydi. U ijtimoiy tarbiyaning umumiyligi maqsadini tushunadi, unga erishish yo‘lida amalga oshiriladigan vazifalar tizimidan xabar-dor, tarbiya shakl, metod, vositalarini to‘g‘ri tanlay oladi va tarbiya jarayoniga tatbiq etadi.

Tarbiya tamoyillari. Tarbiya mazmunida oldinga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o‘ylab ko‘ring.

1. “Tarbiya jarayoni”ning mohiyati va uning jamiyat taraqqiyo-tidagi o‘rni?
2. “Tarbiya nazariyasi va usullari” mavzusini o‘qib chiqing.
3. Tarbiyaning maqsad, vazifalari va metodlari haqida fikr-mulo-haza yuriting.

9-mavzu. Tarbiya nazariyasi va usullari (amaliy mashg'ulot)

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan quyidagi mashqni bajaring.



Mashq

**Muammoli vaziyat.
Tarbiya usullari haqida umumiy tushunchaga
egamisiz?**

2-topshiriq. Quyidagi terminlarni ketma-ketlikda joylashtiring.

Termin	Ta'rif
Tarbiya	o'qituvchi o'z kasbiga ixlos qo'yishi va uning ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishi, bolalarga ta'sir o'tkazishi va ular bilan hamdardligini namoyon qila olishi shunday fazilatlar majmuasi.
Pedagogik faoliyat	Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir.
Pedagogik kasb	o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va ma'suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi.

3-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mazmun jihatidan to'g'ri keladigan so'zlanı yozing.

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqr anglab yetishi va ularga xolisona berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli doimiy bera olishi lozim (bahol, natija, samara, ma'lumotlarni, axborotlarni, tamoyillarni).

2. O‘qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib borishi, o‘quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o‘sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi, zarur paytda so‘z, ish yoki amaliy harakat bilan yordam bera olish ta’lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlovchi (qobiliyati, mahorati, munosabati, omillardir, tamoyillardir, vositalardir).

3. Ta’lim va tarbiya har bir o‘qituvchidan ulkan aql-zakovat, sabr-toqat, matonat, o‘quvchilarga va o‘z kasbiga yuksak mehr-muhabbatli bo‘lishni talab etadi (jarayoni, faoliyatini, mazmunini).

4. Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish yo‘l qo‘yilgan yoki qo‘yilayotgan xatolardan holi bo‘lish, o‘quvchilar, hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi (pedagogik faoliyatta, ta’lim jarayonida, pedagogik boshqaruvda, hamkasblar, rahbarlar, o‘qituvchilar).

10-mavzu. Pedagogika tarixining maqsad va vazifalari.

Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar (ma'ruza)

O'zbekistonda ta'limni isloq qilish tamoyillari va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning asosiy yo'nalishlari. Respublikamizning istiqlolga erishuvni jamiyat hayotining barcha jabhalarida, shu jumladan ta'lim-tarbiya sohasida ham o'z aksini topdi. O'zbek pedagogikasi tarixida burilish davri, yangilanish davri boshlandi. O'zbekiston Respublikasidagi mustaqil huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish yo'lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yanidan kashf qilishga, uni intellektual-amaliy rivojlanishi uchun yangi shart-sharoitlar yaratib berdi. Bu, o'z navbatida, insoniyat yaratgan ma'naviy-ilmiy boyliklarga, insonning o'ziga yangicha munosabat, yondoshuvni yuzaga keltirdi.

Ta'limni quyidagi yo'nalishlarda isloq qilish vazifalari belgilab olindi:

- umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyat asoslarini e'tiborda tutgan holda ta'lim-tarbiya mazmunini milliy mafkura, mustaqil Vatan tuyg'usi asosida o'zgartirish va takomillashtirish;
- ta'lim samaradorligini timmay oshirish, jahon andozalari darajasiga olib chiqish;
- variativ o'quv rejalar, dasturlar, darsliklar yaratish;
- bilimdonlik va iste'dodni qo'llab-quvvatlash;
- ilg'or tajribalarga, ijodkor ustozlar tajribasiga suyanish;
- ta'lim-tarbiyada bosh islohotchi bo'lgan pedagog, tarbiyachilarning yangi avlodni tayyorlashga kirishish;
- ta'lim muassasalarining moddiy-texnika asosini mustahkamlash, ta'limni kompyuterlashtirish, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani olib kirish;

- ta'lim tizimini, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- isloh g'oyalarini iloji boricha viloyat, tuman, o'quv muassasasi pedagogik jamoalariga tezroq yetkazish, singdirish, amalga oshirish.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qayerda ta'lim va tarbiyaga e'tibor katta bo'lsa, o'sha yerda taraqqiyot, yuksalish bor. Shuning uchun respublikamizning istiqboli uzluksiz ta'limni qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq.

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ta'limning ustuvorligi – uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;
- ta'limning demokratlashuvi – ta'lim va tarbiya uslublarining tanlanishida o'quv yurtlarining mustaqilligini kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;
- ta'limning insonparvarligi – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;
- ta'limning ijtimoiylashuvi – ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlarni shakllantirish;
- ta'limning milliy yo'naltirilganligi – ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotining o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;
- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- uzluksiz ta'limni isloh qilish yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Ta'lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, pedagog, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish;

- davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish;
- ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyalarning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim va kasb-hunar ta’limi dasturlarini tubdan o’zgartirish;
- majburiy umumiy o’rta ta’limdan o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga o’tilishini ta’minlash;
- maxsus, kasb-hunar ta’limining markazlari sifatida fan va ishlab chiqarish integratsiyalashgan yangi tipdagi o’quv muassasalarini vujudga keltirish;
- ilg‘or texnologiyalarni keng o’zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o’zgarishlar, chet el investitsiyalari ko’lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish bilan bog‘liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar, shu jumladan boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- milliy mustaqillik tamoyillarini va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlarning ustuvorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;
- ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruv shakllarini rivojlantirish, ta’lim muassasalarini mintaqalashtirish;
- ta’lim olishda, shuningdek talabalarni ma’naviy-axloqiy, intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;
- ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;
- ta’lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnik va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta’minlash mexanizmlarini shakllantirish;
- uzlusiz ta’limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta’lim va ilm-fan bilan bog‘liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va rivojlantirish;
- tub yerli millatga mansub bo‘limgan shaxslar zinchilik yashaydigan joylarda ular o‘z ona tillarida ta’lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish;
- ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarining huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Uzluksiz ta’lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta’lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta’lim dasturlarning izchilligi asosida ta’minlanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining o‘ziga xosligi mustaqil ravishda to‘qqiz yillik umumiy o‘rtalik hamda uch yillik o‘rtalik maxsus, kasb-hunar ta’limini joriy etishdan iborat. Bu esa, umumiy ta’lim dasturlaridan o‘rtalik maxsus, kasb-hunar ta’limi dasturlariga izchil o‘tilishni ta’minlaydi.

Umumiy ta’lim uzluksiz davlat ta’limi tizimida asosiy bo‘g‘in bo‘lib, ta’lim oluvchilarining ilmiy bilimlar olishini, mehnat ta’limi, boshlang‘ich kasb ko‘nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallashalarini, shuningdek o‘z ijodiy qobiliyatlari va ma’naviy fazilatlarini rivojlantirishlarini ta’minlaydi.

Ta’lim haqidagi davlat siyosatining asosiy mohiyati tayanch ta’limining (to‘qqiz yillik) majburiyligidir.

O‘rtalik maxsus ta’lim (akademik litsey, kasb-hunar kollejlari) uch yillik.

Oliy ta’lim: birinchi bosqich – bakalavriat;
ikkinci bosqich – magistratura.

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim: aspirantura, doktorantura, tadqiqotchi kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tarmog‘i.

O‘tkaziladigan islohotlar, samarali tajribalar respublikada ta’limning davlat standartlarini ishlab chiqish va tatbiq etish davr talabi ekanligi, bu ishni kechiktirmay amalga oshirish zarurligini taqozo etadi.

Ta’lim standartlari vositasida talabadagi ma’lumot darajasi muvozanati saqlanadi, rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyoti istiqbollari

muvofigligi ta'minlanadi. Davlat ta'lim standartlari o'quv jarayonini qat'iy chegaralangan qolipga solib qo'ymaydi, balki aksincha, pedagogik ijodkorlikka, ta'lim mazmunining yagona negizi atrofida turli-tuman tabaqalashtirilgan dasturlar, o'quv qo'llanmalari, o'qitish uslubiyatlariga katta yo'l ochadi.

Davlatimiz rahbari uzlusiz ta'limni tashkil etishda uning jahon talablari darajasida bo'lishi hamda u yuksak ma'naviyat zaminida qurilishiga katta ahamiyat berish kerakligini ta'kidlar ekan, Davlat ta'lim standartlarini joriy etish va uning mexanizmini ishlab chiqish naqadar muhimligiga e'tiborni qaratadi.

Standart – ta'limda yaratilgan me'yoriy reja, dastur, darsliklarni o'zlashtirish ekvivalenti, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish darajasidir. Standartni ishlab chiqishda talabani xaddan tashqari zeriktirib yubormaslik talablariga rioya qilish, ya'ni u talaba yoshiga mos, uni bajarishga qurbi yetadigan darajada bo'lishi kerak. Bunda, albatta, ta'lim oluvchining qiziqishi, xohishi, ehtiyoji hisobga olinishi lozim.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasaları oldiga muayyan ijtimoiy buyurtmalar qo'yayotgan ekan, o'sha muassasalar tomonidan tayyorlanadigan kadr egallashi lozim bo'lgan ijtimoiy sifatlarning minimal chegarasini ham ko'rsatib berish tabiiydir. Ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yoxud ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdoridagi ilmiy asoslarda malaka yohud ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdoridagi ilmiy asoslarda berilgan rasmiy pedagogik hujjat Davlat ta'lim standarti hisoblanadi. Demak, Davlat ta'lim standartlari nazorat vositasi, ayni vaqtida ta'lim muassasalarida ko'zlangan ko'rsatkichlarni qo'lga kiritish uchun zarur bo'lgan sharoitni belgilash o'lchovi hamdir. Davlat ta'lim standartlarining ko'rsatkichlari amaldagi mavjud ta'lim mazmunidan emas, balki shakllantirilayotgan talabaga singdirilishi lozim bo'lgan sifatlarning jahon bo'yicha zarur deb hisoblangan miqdoridan kelib chiqadi.

Davlat ta'lim standartlarining ikki asosiy vazifasini alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin.

1. Talabalarga beriladigan ta'lim mazmunining majburiy minimularini belgilash.

2. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga quyiladigan talablar majmuasini belgilash, bilim, ko'nikma va malakalarning minimal miqdorini belgilash.

Ta'lism nazariyasi ta'lism jarayonini qonun va qoidalarini o'rganuvchi pedagogikaning asosiy qismlaridan biri. Ta'lism jarayonining asosiy mohiyati tarixan to'plangan ijtimoiy bilim va tajribani yosh avlodga yetkazish, yoshlarni bilimlar bilan qurollantirish, kerakli malakalar va ko'nikmalarni hosil qilish, talabalarning ichki imkoniyatlarini, qobiliyatini va iste'dodlarini ochish hamda rivojlantirish, ularni ma'naviy yetuk va tarbiyalı shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashdir.

O'quvchini jamoada va jamoa orqali tarbiyalash. Ilg'or o'qituvchilar tajribasining ko'rsatishicha, o'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushgandagina tarbiya ishlarini amalga oshirish ancha yengil bo'laadi va muvaffaqiyati ta'minlanadi. Yaxshi uyushgan, sog'lom jamoada o'quvchilarning fikri juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo'ladi va tarbiya jarayonida o'qituvchilarning tayanchiga aylanadi.

O'z manfaatini jamiyat manfaatlari bilan qo'sha bilish, bir-biriga o'zaro yordam berish kabi qimmatli fazilatlar, avvalo, jamoada shakllanadi. O'quvchilar jamoasida har bir shaxsning kamolga yetishi hamda sinfda va umuman, mакtabda do'stlik rishtalarini mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratmoq darkor. Shuni ham aytish kerakki, ba'zan tarbiya jarayonida jamoa bilan shaxs o'rtaсидаги qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishga ham to'g'ri keladi.

O'quvchilarda jamoa manfaatini ko'zlash, jamoatchilik hissi, avvalo, birgalikda o'qish va mehnat qilish jarayonida mustahkamlanadi.

O'qituvchi va tarbiyachi o'zining tarbiyaviy ishlarini hamma vaqt o'quvchilar jamoasiga ular orasidagi faol o'quvchilarga tayanmog'i, o'quvchilarni turli ishlarni birgalikda bajarishga odatlantirib, ularga jamoatchilik ruhini singdirib borilishi lozim.

O'quvchi shaxsiga hurmat va unga talabchanlik. Ta'lism muassasalarida o'qituvchi avvaliga o'quvchilardan biron narsani talab qilib, so'ngra o'zining bu talabini unutib qo'ysa yoki keyingi ishlarida o'zi bu talabga xilof ish tutsa, bu hol o'quvchi tarbiyasiga yomon ta'sir etadi. Bunday o'qituvchilarni o'z so'zida qat'iy turmaydigan kishilar deb atash

mumkin. U o‘quvchilarga topshiriq berib: «Bilib qo‘yinglar, topshirilgan vazifani albatta tekshirib, tegishli bahoni qo‘yaman», – deb ogohlanti-radi. Lekin, o‘quvchilar topshiriqnı bajargan yoki bajarmaganlarini aslo tekshirmaydilar. Bu toifadagi o‘qituvchilar o‘quvchilar tartibni salgina buzsalar, u ko‘p do‘q-po‘pisa qilib, ularga qarshi turli choralar ko‘rajagini aytadi-yu, biroq amalda hech qanday chora ko‘rmaydi. U biror qiziq tadbir o‘tkazishni o‘quvchilarga va’da qiladi-yu, ammo va’dasini esdan chiqarib qo‘yadi. O‘quvchilarda bunday o‘qituvchilarga nisbatan izzat, hurmat paydo bo‘lmaydi. Har bir o‘qituvchi-pedagogning so‘zi bilan ishi bir xil bo‘lishi kerak. U o‘z ishida va so‘zida izchil bo‘lmog‘i lozim. Har bir o‘qituvchi uchun bu narsa qonun sifatida tan olinishi shart.

Umumta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilariga juda ko‘p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Aksincha, o‘quvchilarning xulqi va yurish-turishlarini nazorat qilish kifoya. Ularga hurmat va e’tibor bilan qaralsa, ularning o‘ziga va o‘qituvchiga bo‘lgan ishonchi ortadi hamda o‘qituvchiga nisbatan hurmati yanada kuchayadi. Zotan, o‘quvchilar talabchan va mehribon o‘qituvchini sevadilar, hurmat qiladilar va unga to‘liq ishonadilar. Mana shunday o‘qituvchining o‘quvchilarga nisbatan tarbiyaviy ta’siri kuchli bo‘ladi, uning obro‘yi ortadi. Agarda o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarining kuchiga va imkoniyatiga ishonch bilan qarasa, ular bu ishonchni oqlashga intiladilar.

O‘qituvchi o‘quvchiga nisbatan haddan tashqari talabchan va qat-tiqqa‘l bo‘lishi ham, va aksincha, bolalarga yuzaki muomala qilishi ham yaramaydi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga nisbatan talabchan bo‘lishlari va qo‘ygan talablarining o‘quvchilar tomonidan so‘zsiz bajarilishiga erishmoqlari lozim. Bu esa, o‘quvchilarni o‘qituvchilar tomonidan qo‘yilgan oqilona talablarni o‘z vaqtida bajarishga odatlantiradi. Shu bilan birga, ular o‘zlariga nisbatan ham talabchan bo‘ladilar.

Tarbiya jarayonida o‘quvchilarga nisbatan o‘qituvchilar, ota-onalar, yoshlar tashkilotlari hamda barcha jamoatchilik tomonidan bir xilda talab bo‘lishini, ya’ni talabda qat’iy birlik bo‘lishini ta’min etish g‘oyat muhimdir.

Mavzuni o‘qib chiqishdan oldin quyidagi savol haqida o‘ylab ko‘ring.

1. Pedagogika tarixining mazmun-mohiyati haqida qanday tushunchaga egasiz?
2. “Pedagogika tarixining maqsad va vazifasi. Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar” mavzusini o‘rganing va individual fikringizni bildiring.

**10-mavzu. Pedagogika tarixining maqsad va vazifasi.
Eng qadimgi davrdan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va
pedagogik fikrlar
(amaliy mashg‘ulot)**

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan quyidagi mashqni bajaring.

 Mashq	<p>Muammoli vaziyat Sharq mutaffakkirlaridan pedagogika haqida tushunchalari bo‘yicha ma’lumotga egamisiz?</p>
---	---

2-topshiriq. Nima uchun “Ta’lim tarbiyada pedagogik mahorat” dolzarb bo‘lmoqda. FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling.

FSMU texnologiyasi

(F) – Fikringizni bayon eting.

(S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko‘rsating.

(M) – Ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.

(U) – Fikringizni umumlashtiring.

(F) – Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o‘tmish qadriyatlari, zamонавиу axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo‘lish, ilg‘or xorijiy dav-

latlarning o‘qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o‘rganish jarayonida tarkib topadi.

(F) – Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, ilg‘or xorijiy davlatlarning o‘qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o‘rganish jarayonida tarkib topadi.

(F) – Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo‘lish, ilg‘or xorijiy davlatlarning o‘qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o‘rganish jarayonida tarkib topadi.

(S) – O‘qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko‘nikmalarni oshirib borish, doimiy ravishda ilmiy anjumanlar hamda seminarlar, pedagogik o‘qish hamda treninglarda faol ishtirok etish.

(S) – O‘qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko‘nikmalarni oshirib borish.

(S) – O‘qituvchi xodimlarni doimiy ravishda ilmiy anjumanlar hamda seminarlar, pedagogik o‘qish hamda treninglarda faol ishtirok etish.

(M) – Pedagogik mahoratga ega bo‘lish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minalash garovi bo‘libgina qolmay, ayni vaqtida o‘qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro‘-e’tiborini oshiradi, o‘quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

(M) – Pedagogik mahoratga ega bo‘lish ijtimoiy muhitda obro‘-e’tiborini oshiradi, o‘quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

(M) – Pedagogik mahoratga ega bo‘lish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minalash garovi bo‘libgina qolmay, o‘quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

(U) – Pedagogik mahorat – o‘qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va hokazo) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo‘lib, o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi faoliyatdir.

(U) – Pedagogik mahorat – o‘qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va hokazo) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyatni va hokazo) fazilatlarini belgilovchi imkoniyatini ta’minlovchi faoliyatdir.

(U) – Pedagogik mahorat – kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qibiliyatni va hokazo) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo‘lib, o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi faoliyatdir.

3-topshiriq. Quyidagi mantiqiy testga o‘ylab javob berishga harakat qiling. Ha yoki yo‘q va to‘g‘ri-noto‘g‘ri shakldagi mashqlar.

1. Siz odatda o‘z manfaatingiz yo‘lida yaxshi inson bilan urishib qolishingizni sezsangiz:

- a) anchagina yon beraman
- b) o‘z manfaatimni himoya qilaveraman
- s) yo‘q, himoya qilaman deb hisoblamayman

2. Sizni hafa qilishsa, uzoq vaqt qayg‘urasizmi?

- a) odatda, tez esdan chiqaraman
- b) anchagacha o‘zimni yomon his qilaman
- s) yo‘q, qayg‘urmayman

3. Siz o‘z umidlaringiz, havotirlaringiz va tashvishlaringiz haqida ochiq ayta olasizmi?

- a) ha, buning zararli, uyatli joyi yo‘q
- b) yo‘q, bu mening shaxsiy ishim, yashirish kerak
- s) yo‘q, uyatli joyi bor deb hisoblayman

4. Siz o‘zingizni baxtli his qilgan paytlaringizda, hayotda kim-largadir og‘irroq bo‘lishi mumkinligi haqida ham o‘ylaysizmi?

- a) menda bunday holat doimo bo‘ladi
- b) “har kim ekkanini o‘radi”
- s) yo‘q, o‘ylamayman

11-mavzu. VII asrdan XIV asrgacha bo‘lgan davrda maktab, tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti (ma’ruza)

Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo‘lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o‘rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkiri Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog‘liq. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o‘z bilim, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiy yirik mutafakkir – «Muallimi soniy» (Ikkinch muallim) deb ataydilar.

Forobiy ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlagan asarlarida ta’lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e’tibor berish zarurligi, ta’lim-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to‘g‘risida» kabi asarlarinda ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Forobiy o‘z ishlarida ta’lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta’lim bergen bo‘lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o‘z o‘rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta’kidlaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishish to‘g‘risida» nomli asarida bilimlarni o‘rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta’kidlashicha, avval bilish zarur bo‘lgan ilm o‘rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmlar. Uni o‘rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar to‘kilishini, shaklning osmon haqidagi bilimlarni o‘rganish lozim. Undan so‘ng, umuman, jonli tabiat o‘simplik va hayvonlar haqidagi ilm o‘rganiladi, deydi.

Forobiy «Inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lish, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariiga muhtoj bo‘ladi», deb hisoblaydi.

Bunga Forobiy ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin, deydi. Chunki, maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun qoidalarning to'g'ri bo'lib oladi va hayotda to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan to'g'ri muносабатда bo'ladi, jamiyat tartib-qoidalariга rioya etadi.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Forobiy ta'lim tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'lim – degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatlarni ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim.

Abu Nasr Forobiy yana aytadiki: “Ta'lim – degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasida tug'ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir.

Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishdir”, – deydi.

Forobiyning ta'lim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatli. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l – ta'lim-tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim nazariy fazilatlarni birlashtirsa, tarbiya esa tug'ma fazilat – nazariy bilimlar va amaliy kasb-hunar, xulq-odob fazilatlarini birlashtiradi, ta'lim so'z va o'rganish bilan, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi deydi. Har ikkalasi birlashsa, yetuklik, bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Demak, Forobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham pirovardida insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ko'zlaydi.

Islom dini g'oyalarining ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiya mazmuni. Hadis ilmining paydo bo'lishi.

Imom Ismoil al-Buxoriy, Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o‘ylab ko‘ring.

1. Ta’lim-tarbiya mazmuning o‘ziga xos xususiyatlari nimada deb o‘laysiz?

2. “VII asrdan XIV asrgacha bo‘lgan davrda maktab, tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti” matn ma’ruzani o‘rganib chiqing.

**11-mavzu. VII asrdan XIV asrgacha bo‘lgan davrda maktab,
tarbiya va pedagogik fikr taraqqiyoti
(amaliy mashg‘ulot)**

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan quyidagi mashqni bajaring.



Mashq

**Muammoli vaziyat
Tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti
bo‘yicha fikringiz qanday?**

2-topshiriq. Pedagogik fikr taraqqiyoti va tarbiya nima uchun kerak? Nima uchun? texnikasi orqali tahlil qiling.

Pedagogik fikr nima uchun kerak?

O‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining o‘zaro ta’sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o‘zaro axborot almashishi-da, ta’lim va tarbiyaviy ta’sir o’tkazishida, o‘zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo‘lishi uchun kerak.

Muloqot o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining o‘zaro ta’sir malakasi, o‘zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo‘lishi uchun kerak.

O‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining o‘zaro ta’sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o‘zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo‘lishi uchun kerak.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro ya-qin muloqoti nima uchun kerak?

Salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish; o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish; o‘quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o‘z fikr-mulohazalarini cho‘chimasdan bayon qilib unga tayanishga o‘rgatish; o‘quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish; dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

Salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish; o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish; dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

Salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish; o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish; o‘quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o‘z fikr-mulohazalarini cho‘chimasdan bayon qilib unga tayanishga o‘rgatish; quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

3-topshiriq. Quyidagi mashqni bajaring. Mazmun jihatdan teminlarni joylashtiring.

termin	ta’rif
Produktiv pedagogika	iqtisodiy bilimlarni berish
Multisavodxonlik	o‘quv rejani barcha o‘rganilayotgan sohalarda yangitdan puxta o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi
Ilmiy qarash	auditoriyalarda tadqiqot asbobi sifatida rivojlangan
Iqtisodiy tarbiya	shaxsga jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish asosida dunyoqarash shakllanadi o‘quvchilarga
Aqliy tarbiya	(yunon. “idea” – g‘oya, tasavvur va tushunchalar yig‘indisi)

12-mavzu. Sharq uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiya masalalari *(ma'ruza)*

Sharqda «Shayx ar-Rais» nomi bilan mashhur bo'lgan allomalar-dan biri, o'rta asr buyuk mutafakkiri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sino ham boshqa zamondosh qomusiy olimlar qatori matematika, astronomiya, fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, filologiya, ta'lim-tarbiya sohalarida ijod etgan va dunyoga mashhur yirik asarlar meros qoldirgan olim.

Allomadan keyingi avlodlarga 250 dan ortiq ilmiy asar boy merosbo'lib qoldi.

Uning «Al-qonun», «Donishnama», «Ash-Shifo», «An-Najot» kabi asarlari shular jumlasidandir.

Ma'lumki, Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalar talqin etgan. Shuningdek, fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o'ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya'ni nazariy va amaliy guruhlarga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o'zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilish kerakligini o'rgatadi, deydi.

U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinci guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rgatuvchi barcha fanlarni kiritadi.

Ibn Sino aqliy tarbiya turli bilimlarni o'rganish natijasida amalga oshsa, axloqiy tarbiya ko'proq yaxshi axloqiy xislatlarini mashq qildirish, odatlantirish, suhbat orqali amalga oshadi deb ta'kidlaydi.

Inson hissiy va ma'naviy talablarni ajratib olish imkoniyatiga ega ekan, bu imkoniyat asta-sekin inson fe'l-atvoriga xos xislatga aylana boradi. Ibn Sino insonni shakllantirishda uning atrofini o'tab olgan tash-

qi muhit va odamlar alohida muhim rol o‘ynaydi, ana shu tashqi muhit va odamlar insonning atrof, dunyoni bilishigagina emas, balki uning xulqida yaxshi yoki yomon jihatlarning tarkib topishida ham ta’sir etadi. Shuning uchun ham bolalarni tarbiyalashda ehtiyojkor bo‘lish kerakligini, bola yomon odatlarga o‘rganmasligi uchun, uni yomon odamlardan, yomon muhittan uzoqroq saqlash zarurligini uqtiradi.

Ibn Sinoning tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya masalalariga keng o‘rin berilgan. Chunki inson avvalo oilada kamolga yetadi.

Olimning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulug‘laydi, undagi qudratga ishonadi, inson tafakkurinnng tantana qilishi kerakligini tinmay targ‘ib qiladi.

Ibn Sinoning inson kamolotida ta’lim-tarbiyaning ahamiyatiga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarkibidagina emas, balki mustaqil risolalarida axloqiy masalalarni chuqur ilmiy-amaliy jihatdan ifodalagan, ilm-fan sohasida tarbiyashunos olim sifatida ham tadqiq etish, o‘rganish navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsaq, ushbu mavzuda Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolarning ijtimoiy-pedagogik qarashlari, axloq-odob haqidagi fikrlari, g‘oyalari, pedagogika sohasidagi, ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari. O‘zbek xalq pedagogikasining yirik namoyondalari bo‘lgan buyuk allomalarning asarlari, yangi usul maktablari jadidlar oqimi, ta’lim sohasidagi qo‘shilgan hissalarini haqidagi mulohazalar keltirilgan.

Biz tarixdan bilamizki Amir Temur va dastlabki temuriylar hukmronlik qilgan davr Movarounnahr tarixida alohida o‘rin egallaydi. Chunki bu davrlarda Samarqand, Hirot shaharlarida madaniyat, ilm-fan rivojlanib bordi. Shunday markazlashgan, buyuk davlatga asos solgan Amir Temur Kurogon ibn amir Tarag‘ay 1336-yilning 9-apreliida o‘sha paytdagi Kesh (Shaxrisabz) ga qarashli Xo‘jailg‘or qishlog‘ida tavallud topdi. Otasi amir Tarag‘ay o‘ziga to‘q, badavlat kishi edi. Onasi Teginha beginmoxorolik bo‘lgan.

Sohibqiron (Bu unvon bo‘lg‘usi jahongirga u tug‘ilmasdan turibog‘ din ahllari tomonidan bashorat tariqasida berilgan. «Sohibqiron»

atamasining lug‘aviy ma’nosи «yulduz burjlarining baxtli kelishi (Kuron) da tug‘ilgan farzand demakdir. «Temurnoma» muallifining ta’kidlashicha, «kuron» ya’ni yulduz burjlarining baxtli kelishi har saqkiz yuz yilda bir marta sodir bo‘ladi. Insoniyat tarixida «Avval Iskandar Zulqarnayn hazratlari, ikkinchi Muhammad Rasul akrom sollallohu alayhi vasallam saidimiz, uchinchi Amir Temur xonimiz» shu soniyada dunyoga kelganlar). Amir Temurning yoshligi Keshda kechdi. Yetti yoshgа to‘lgach, otasi uni o‘qishga berdi. Amir Temur yoshlilik chog‘idanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida chavondozlik, ovchilik, kamondan nishonga o‘q uzish kabi mashg‘ulotlarni puxta egalladi.

Amir Temur odob-axloq, iymон, e’tiqod, ta’lim-tarbiya sohasida o‘zi yuksaklikka, mutafakkirlikka erishgan siymolardan biridir. Bunga ishonch hosil qilish uchun bobomizning o‘zi tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, o‘gitlar, pand-nasihatlarni, shuningdek Sohibqiron haqidagi tarixiy asarlarni ko‘zdan kechirish kifoya. «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Marfuzaota Temuriy» («Temurning aytganlari») va «Vakioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari») nomi bilan jahonga mashhur bo‘lgan asarlarida Amir Temurning ibratlι, hayotiy pand-nasihatlari va purma’no o‘gitlarining har biri mazmun va ma’no kengligi, kuchliligi, teranligi, ta’siri, umuminsoniy qadriyatlar asosida qurilgan bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu asarlarni qadrli xazina odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz.

Bu asarlar Sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish: goh muvaffaqiyatli, goho quvonchli, goho sertashvish umrining ijodiy mevasidir. Asarlardagi barcha o‘gitlar xalqlarni bir maqsad sari birlashtirgan, jipslashtirgan, muvaffaqiyatlarga erishtirgan, sehrli tarbiavyi kuchga ega bo‘lgan durdona-pedagogikadir. Bu pedagogika buyuk Sohibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilish, g‘olibona harbiy yurishlar qilish, mamlakatda osoyishtalik o‘rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o‘rtasidagi buzilmas do‘stlik, mehr-shafqat, odamiylik va axloq-odobnī tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga bag‘ishlangandir.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o'ylab ko'ring.

1. Sharq uyg'onish davrida pedagogik fikr taraqqiyotini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari?
2. "Sharq uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiya masalalari" matn ma'ruzani o'rganib chiqing.
3. O'qituvchi tomonidan o'quv jarayonida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirilishi va unda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati nimada?

**12-mavzu. Sharq uyg'onish davri va unda
ta'lim-tarbiya masalalari**
(amaliy mashg'ulot)

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan mashqni bajaring.



Mashq

**Mutafakkirlarning hayoti, faoliyati,
ijtimoiy-falsafiy qarashlari, yaratgan asarlari**

2-topshiriq: Mavzu asosida nuqtalar o'rniga qavsda berilgan so'zlardan mosini tanlab qo'ying.

1. Ta'limni isloh qilishdan asosiy maqsad –demokratiyaning ustunligi, tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining bir-birlariga o'zaro ishonchi, hamkorlik asosida pedagogik mohiyatini ijobjiy tomonga yo'naltirish demakdir. O'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, axloqiy normalarni o'zlashtiradilar (tarbiyada, ta'limda, o'qitishda, munosabat, muloqot, qobiliyat).
2. Tarbiyaviy faoliyatni bilan birgalikda tashkil etadi. Bunda sinfning faol o'quvchilari hamda norasmiy liderlari bilan o'za-

ro muloqotning adolatli bo‘lishi muhim ahamiyatga ega: o‘quvchilarni tarbiyaning turli elementlarini ongli ravishda mustaqil bajarishga jalb etish, bunda o‘quvchilarga va ijro etish rollarini bajarishga imkoniyat yaratib berish lozim (o‘quvchilar, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, tashkilotchilik, boshqaruvchanlik, liderlik).

3. Norasmiy muomala etika va estetikaning qonuniyatlariga va o‘qituvchi odobiga asoslanadi va jamoaning har bir a’zosi tomonidan ixtiyoriy ravishda bajariladi. odobi psixologik qonuniyatlar, odob normalari va qoidalari, talablari hamda o‘qituvchilar jamoasining fikri asosida boshqariladi (pedagogik, psixologik, metodologik, muloqot, munosabat, faoliyat).

4. O‘quvchilar jamoasini birlashtiruvchi ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish va boshqarishda o‘qituvchining, pedagogik mahorati va psixologik xususiyatlari ochiq namoyon bo‘ladi (sinfda, darsda, auditoriyada, bilimi, faoliyati, munosabati).

3-topshiriq. Quyidagi mantiqiy testni ishlang.

1. Tarbiyaning tarixiy xarakteri deganda nima tushunasiz?

- a) Tarbiyaning tarixiy rivojlanish bilan, tarix fani bilan bog‘liqligini tushunamiz
- b) Inson tarbiyasini u yashagan tarixiy sharoit bilan bog‘liq holda amalga oshirilishi
- c) O‘quvchilarni har bir xalqning tarixiy an’analari ruhida tarbiyalashni tushunamiz
- d) Jamiatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘liq holda tarbiya xarakteri, mazmuni, vazifalari, metodlarining o‘zgarib borishi

2. Umuminsoniy tarbiyaviy qadriyatlarga nimlar kiradi?

- a) Butun insoniyatning ta’lim-tarbiya sohasidagi tajribalari
- b) Barcha xalqlar uchun umumiy bo‘lgan ilg‘or tarbiyaviy g‘oyalalar, an’analalar
- c) Tarbiyada archa insonlarning qadr-qimmatini hurmat qilish
- d) Barcha millatlarga xos axloqiy normalar

3. Pedagogika fanining asosiy tushunchalari qaysilar?

- a) Maktab. O‘qituvchi, ta’lim-tarbiya
- b) Ta’lim, didaktika, ma’lumot, metod
- s) Tarbiya, ta’lim, ma’lumot, rivojlanish, shakllanish
- d) O‘qitish, tarbiyalash, o‘qituvchi, ma’lumot

4. Pedagogik xodisa sifatida tarbiyaning mohiyati nimadan iborat?

- a) O‘quvchilarga milliy istiqlol g‘oyalarini, vatanga muhabbatni singdirish
- b) O‘qituvchi – murabbiylarning ta’lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishi
- s) Shaxsni ijtimoiy tajribani egallash bo‘yicha faoliyatini tashkil etishdan iborat va maqsadga qaratilgan ongli ravishda amalga oshiriladigan pedagogik jarayon
- d) Maktab, oila. Jamoatchilikning hamkorlikda o‘quvchilarni tarbiyalashi

13-mavzu. Sharq pedagogik ta'limotida ta'limiy-axloqiy qarashlar (ma'ruza)

O'zbek adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma'rifatparvar, faylasuf, musiqashunos davlat arbobi Nizomiddin Alisher Navoiy Hirotda tug'ilib, shu yerda yashab ijod etgan. U o'zining «Hamsa», «Mahbub ul-qulub» kabi yirik ta'limiy-axloqiy asarlarida, shuningdek «Munojot», «Vaqfiya», «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug'atayn» asarlarida hamda Abdurahmon Jomiyning «Arba'iyn» nomli asari tarjimasi «Chihil hadis» («Qirq hadis») kabilarda tarbiyaga oid o'z qarashlarini ifoda etadi. Alisher Navoiy badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etadi.

Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimini va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U «Bilim va donishmandlik insonning bezagidir» deb yozadi. Navoiy farzand tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, tarbiyalanuvchini «hayot chirog'i» deb ta'riflaydi. Farzand oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Uning fikricha, shaxsga kichik yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga, muallimga berish lozim deb hisoblaydi.

Shuningdek, Navoiy hayotda o'z ilmiga amal qilish, o'rganganlarini hayotga tadbiq etish masalasiga alohida e'tibor beradi. Masalan, u «Mahbub ul-qulub» asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib dehqonchilik qilmagan yoki urug' sochib hosildan baxra olma-ganga o'xshaydi, deydi.

Ilm o'qib, qilmagan amal maqbul,
Dona sochib, ko'tarmadi mahsul.

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. Bunda u olim-u fozillarni yig'ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e'tibor beradi.

Uning fikricha, bilimlarni tinmay uzlucksiz o'rganish zarur, bunda har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish muhimligini, qunt bilan ishslash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurash, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o'rganishni ta'kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o'z davrida to'g'ri ifodalab, hatto ta'lim tizimini belgilab beradi: ya'ni Alisher Navoiy ta'lim tizimini o'z davrida o'quv muassasasi, madrasalarda o'qish, olim, hunarmand, san'atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlardan foydalanishni tavsiya etadi.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda muallimning, mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning o'zлari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaassib, johil dom-lalarni tanqid qiladi va pedagog ma'lumotli, o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur deydi. Bunday muallimlar shogirlarni yonida yuzlari yorug' bo'lib, doimo izzatda, hurmatda bo'ladilar, deb ta'kidlaydi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamat bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj ila.

Shunday qilib biz Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki ta'lim-tarbiya masalalariga a'lohida e'tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatib o'tadi. U ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir.

Mana shunday mutafakkirlarning ijodini o'rganish uchun birga Mustaqillikka erishganimizdan keyin ancha yo'llar ochildi. Endilikda uning ijodini aslicha, mohiyatini tushunib o'rganish imkoniyatlari yuzaga keladi. 1991-yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi tantanali nishonlandi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta'sis etildi. Respublikaning birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i barpo etildi va bu bog' o'rtasida shoirning haykali o'rnatildi. Shu bilan birga, kitobxonlarga shoirning 20 jiddli mukammal asarlar to'plami nashr etila boshlandi. Har yili A.Navoiy 9-fevralda Navoiy tavalludiga bag'ishlangan

ilmiy-an'anaviy konferenqiya o'tkazilib, Alisher Navoiy merosini o'rganish sohasida qilingan yillik ishlarga yakun yasaladi.

Mavzuni o'qishdan avval quyidagi savol haqida o'ylab ko'ring.

1. Sharq pedagogik ta'limotida qanday ta'limiy-axloqiy qarashlarni bilasiz?

2. Ilovadagi "**Sharq pedagogik ta'limotida ta'limiy-axloqiy qarashlar**" matn ma'ruzani o'rganib chiqing.

**13-mavzu. Sharq pedagogik ta'limotida
ta'limiy-axloqiy qarashlar
(amaliy mashg'ulot)**

I-topshiriq. Mavzu yuzasidan mashqni bajaring.



Mashq

**Pedagogik ta'limotda ta'limiy-axloqiy
qarashlar**

2-topshiriq. Ha yoki yo'q va to'g'ri-noto'g'ri shakldagi mashqlar.

1. Sizda odamning fe'l-atvorini tushunish maqsadida uning yuziga tikilib qarash odati bormi?

- a) ha, men doim odamlarga qiziqish bilan qarayman
- b) yo'q, bu men uchun qiziq emas

2. Siz odamlar bilan doimiy muomalani talab qiladigan ishlarni yoqtirasizmi?

- a) ha, faqat shunday ish quvonch keltirishi mumkin
- b) yo'q

3. O‘zgalarning kulgisidan ta’sirlanasizmi?

- a) ha
- b) meni befarq qoldiradi

4. Yoqtirmagan odamingiz bilan samimiy gaplasha olasizmi?

- a) ha, ko‘pincha bu mening qo‘limdan keladi
- b) yo‘q, men bunday qilolmasdim

5. Ko‘pincha Sizga nisbatan adolatsizlik qilishayotganday bo‘ladimi?

- a) ha
- b) yo‘q

3-topshiriq. Mavzu yuzasidan mashqni bajaring.

Termin	Ta’rif
Ekologik ta’lim	o‘quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzuksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni
Ekologik ong	tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarining ongdagi ifodasi bo‘lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi
Ekologik madaniyat	o‘quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati
Ekologik faoliyat	ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui
Ekologik tarbiya	(grek. “oikos” – turar joy, makon, “logos” – fan)

14-mavzu. XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar (ma'ruza)

O'zbek millatiga xos zamonaviy usullardan foydalanib tarbiya jayronini tashkil etish, milliy tarbiyani amalga oshirishda o'z ma'naviy qadriyatlarimizni roli ko'rsatib o'tilgan.

Muqimiy Qo'qonda, shuningdek qo'shni shaharlarga, qishloqlarga sayohat qilgan paytlarida hayotni sinchiklab ko'zatgan, uning yo'llarini chuqur o'rgangan. Nohaqlikni ko'rib iztirobga tushgan va unga qarshi o'zining butun shoirlik iste'dodining kuchini ishga solgan. U she'riyatning masnaviy shaklidan keng foydalangan. Binobarin masnaviy shakli qadimdan she'riy dostonlarda, do'stona yozishmalarda qo'llanib keligan.

Mehnatkashlar muhitida o'sib-ulg'aygan, yuksak axloqiy ideallar ruhida tarbiyalangan, sharq she'riyati mumtozlarining yo'llini tutgan. Muqimiy yolg'onchilikka, ikkiyuzlamalikka doimo murosasiz bo'lган. O'z davrining va o'z muhitining farzandi sifatida ham, qalbida ham e'tiqodli musulmonligicha qolgan.

Muqimiy ijodining ayrim tadqiqotchilariga qo'shilib, uning ot yoki «Arava» turkumlaridagi she'rлarida qirchang'i va qaysar hayvonlar timsoli yoki almisoqdan qolgan shaldoq arava timsoli orqali jonajon o'lkadagi bilimsizlik va mutaassiblik, nihoyat darajada ijtimoiy-madaniy qoloqlik ifodalangan, deyish mumkin.

Furqat va uning avlodи ichki kurashlar bilan, ishonchsizlik va qo'rquvni, odatlar ta'sirini bartaraf etishlardan keyingina ruslariga tegishlicha munosabatda bo'la boshladilar. Inson ko'p yoki ozroq qiyinchilik bilan erishgan va puxta o'ylagan narsalargina uning ma'naviy qiyofasidagi qimmatli va mustahkam xususiyatga aylanishi isbotlab o'tirishning hojati bo'lmasa kerak. Xususan, ma'naviy dunyosi xalqning fikr va hissiyotini aks ettiradigan katta shoir haqida gap borganida ana shuni unutmaslik yanada muhimdir.

Furqatning yangi Marg‘ilondagi bir necha yillik hayoti uning she’riyatdan majburan uzoqlashgan davri bo‘ldi. Chunki u o’sha paytda tog‘asining do‘konida xizmat qilgan, ilohiyotdan saboq olgan, shuningdek uyezd mahkamasida mirzalik vazifasini bajargan.

Lekin, ikkinchi tomondan Furqatning yangi Marg‘ilonda yashagan davri uning hayotida benihoya muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Furqat u yerda do‘kondorlikni o‘rganib, shu darajada moddiy mablag‘ to‘plaganki, keyinchalik faqat O‘zbekistonning turli shaharlariga bemalol borib kelishdan tashqari, 90-yillarda Turkiston va Kavkaz orqali Turkiya, Bolgariya, Gretsiya, so‘ngra Arabiston va Hindiston ga uzoq safar qilgan; u yerdan G‘arbiy Xitoy (Sinszyan yoki Xitoy Turkistoniga yo‘l olib, Yorkent shahriga borgan).

Shunday qilib, Furqat o‘zining turmush tarzi, boyligi, muhiti bo‘yicha boshpanasiz qashshoq Muqimiya nisbatan ancha yuqori ijtimoiy pog‘onada turgan. Lekin shunga qaramay chinakam do‘stlik va dunyoqarashlarining yaqinligi ularni birlashtirgan. Hayotiy sharoitlar Furqatga avvalo ko‘proq narsalarni ko‘rish va atrofdagi voqealarni anglash, shu bilan birga ularni shoirning jamiyatdagi o‘rni va mavqeい u yoki bu darajada taqozo etgan nuqtai nazardan kuzatish imkonini yaratdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy har bir muallimning iqtidoriga qarab darslarga tayinlash kerak, deb o‘z davri uchun g‘oyat yangi fikrni bildirgan. Ya’ni, hozirgidek o‘qituvchilarni matematika, adabiyot, tarix kabi har xil fanlarga ixtisoslashuvidan iborat Turkistondagi maktab va madrasalarga xos bo‘lмаган taklifni o‘rtaga tashlagan. Utobora savodsizlashib borayotgan xalq orasida ziyo nurlarini tarqatishga harakat qilgan, vatandoshlarini, xususan yoshlarni ilm-u ma’rifatni egallashga chaqirgan, ayollarning ilm olish huquqini yoqlagan, odamlarni o‘qish-o‘rganishga qiziqtirishning oddiy usullarini izlagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy «Turkiston viloyatining gazeti», «Taraqqiy», «Xurshid», «Tujor», «Samarqand» gazetalarida, «Sho‘ro» va «Oyina» jurnallarida bosilgan maqolalarida yangi usul maktablarini ochish, ularda bolalarga dunyoviy fanlarni o‘rgatish g‘oyalarini olg‘a surar ekan, tabiat hodisalarini, yerning yumaloqligi,

o‘z o‘qi atrofida aylanishi va muallaq turishini oy va kunning tutilishi va hokazolarni ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishga harakat qilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning xalqni ma’rifatli qilishdek xayrli ishga butun vujudi bilan berilganining dalili sifatida quyidagi dalil g‘oyat qiziqarlidir. U 1919-yilda safarga chiqqanida uni Shahrисабзда Buxoro amirining amaldorlari qamoqqa oladilar va jadidlikda, bolsheviklarning josusi deb aylab qattiq azoblaydilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy amirning buyrug‘i bilan qatl qilinadi. U o‘limi oldidan yozgan vasiyatnomasida shunday degan: “Biz o‘z qismatimizni bilamiz, ammo bechora xalqimizga o‘z hayotimizda nima qilishimiz mumkin bo‘lsa shuni qilganimizni his etish bilan fahrlanganimizdan o‘limni xotirjam kutmoqdamiz.

Mumkin qadar ko‘proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek maorif va xalq baxt-saodatini ta‘minlash sohasida ishlash bizga eng yaxshi haykal bo‘ladi”.

XIX asrning boshlarida Buxorodagi ma’rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida va o‘quv muassasalarini tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid‘atlarini isloq qilish fikri paydo bo‘la boshladi. Shunday islohot tarafdarlarini jadidlar, ya’ni yangilik tarafdarlar deb atay boshlaydilar.

XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko‘p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski o‘quv muassasasi, tarafdarlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Shu tarzda jadidchilik harakati yuzaga keldi va bu harakat o‘zbek to‘prog‘ining barcha go‘shalariga tarqala boshladi.

Jadidchilik jamiyatni to‘ntarish yo‘li bilan emas, islohotlar yo‘li bilan rivojlantirishni o‘zining asosiy vazifasi deb belgiladi. U o‘zining bu vazifasini ado etishda, faqat bir sinfga – proletariatgagina tayanmadidi. Umuman, jadidchilik insoniyatni sinflarga bo‘lib tashlash tarafdoi emas edi.

Jadidlar 1906-yildayoq “Taraqqiy” deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o‘z g‘oyalarini tarqata boshladilar, oradan ko‘p o‘tmay «Xur-

shid», «Shuhrat» singari yangi gazetalar dunyo yuzini ko‘rdi. Markaziy Osiyoning turli shaharlarida jadid maktablari ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar ham keng targ‘ib qilindi.

Agar lo‘nda qilib aystsak, jadidlarning harakat dasturi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan edi:

1. Diniy taassuf va fanatizmga qarshi kurash.

2. Diniy aqidalarga asoslangan o‘rta asr o‘quv muassasalari o‘rniga Ovrupocha dunyoviy ilmlarni ona tilida o‘qitishga moslangan yangi usuldagagi o‘quv muassasalarni tashkil etish, feodal davri maorif tizimini isloh qilish.

3. Jadidchilik g‘oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish niyatida yangi o‘zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot hurligi uchun, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatrni yaratish.

4. Xotin-qizlarni paranjidan chiqarish va jadid o‘quv muassasalriga qatnashishlarini ta’minalash.

5. Mahalliy boylar va savdogarlarning siyosiy va iqtisodiy jihatdan rus burjuaziysi bilan bir huquqda bo‘lishi, mahalliy amaldorlarning chor hukmdorlari tomonidan siquvgaga olishga qarshi kurash.

Asosiy talablari ana shundan iborat bo‘lgan jadidlar uchun ilm va ma‘rifat yagona quroq bo‘lib, ular shu quroq yordami bilan o‘lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo‘ldilar.

O‘zlarini ko‘zlagan maqsadlarini amalgalash uchun yoshlarini savodli qilish niyatida o‘quv muassasasi, maorif sohalarida juda katta targ‘ibot ishlarini olib bordilar. Tashkil etilgan yangi usul o‘quv muassasalarida quyidagilarga e’tibor qaratilgan edi:

1) guruhda tarbiyalanuvchilar soni 30 tadan oshmasligi;

2) tarbiyalanuvchilar faqat yoz va qish boshlarida o‘quv muassasiga qabo‘l qilinishi;

3) har bir muallimda ko‘pi bilan 3-4 guruh bo‘lishi;

4) 7-9 yoshlardagi tarbiyalanuvchi 7-8 soat uzluksiz o‘qiy olmasligini hisobga olib, faqat 5 soatlik o‘qishni joriy etish;

5) juma va bayram kunlari dam olinishi;

6) yozning issiq kunlarida ta’til berilishi;

- 7) har bir darsdan so‘ng 10 daqiqali tanaffus berish;
- 8) talabalarni har 6 oyda imtihon qilish, yil oxirida sinfdan sinfga o‘tkazish, o‘zlashtirmaganlarni sinfga qoldirish.

Shu bilan birga, yangi usul o‘quv muassasalarida diniy bilan birligida xandasa (matematika), jug‘rofiya (geografiya) tarix, tibbiyat kabi fanlarni o‘qitish va fanlarni o‘qitish uchun darsliklar yaratildi.

Turkistonda shu borada A. Avloniy, M. Behbudiy, A. Fitrat, Muvavvarqori Abdurashidov, H.H. Niyoziy kabi o‘nlab ziyorolar juda katta ishlar olib borganlar.

Jamoat va siyosat arbobi shoir va pedagog Abdulla Avloniy Toshkentda, hunarmand oilasida tug‘ildi. Eski musulmon mакtabida va madrasada o‘qidi.

Avloniy mehnatkash xalqqa yordamlashishi maqsadida 1908-yilda kambag‘allarning bolalari uchun mакtab ochadi va unda ona tili ni ta’limning yangi metodlaridan foydalangan holda o‘qitdi. Uning xalq maorifi sohasidagi ishlari uning yozuvchi va shoir rejissyor-sahnalashtiruvchi hamda teatrдagi iste’dodli yoshlarning tarbiyachisi sifatidagi faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan Avloniy 1913-yilda o‘z uyida tashkil etgan xalq teatri katta muvaffaqiyatlarga erishgan.

Avloniy 1917-yilda «Turon» gazetasini chiqara boshlagan, uning sahifalarida xalq maktablari ochish, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash va darsliklar nashr etish masalalariga bag‘ishlangan maqolalar e‘lon qilingan. Ayniqsa, o‘zbek qizlarini o‘qitish va tarbiyalash ular uchun maktablар ochish masalalariga alohida e‘tibor berilgan. O‘sha yillarda Avloniy «Adabiyot» darsligining 1-17-kitoblarini, «Turkiy guliston yoxud axloq», «Maktab gulistoni», «Mardikorlar ashulasi» kabi asalarini yozgan hamda nashr ettirgan.

Ahmadjon Tabibiy Xiva xoni Sayid-Muhammad Rahimxon Soniy maslahati bilan «Munisul-ushshoq» nomli devoniga shunday deb yozadi: «Bu faqir qo‘lida jam bo‘lgan kitobning soni besh devondir. Alarning uchtasi turkin va ikkitasi forsiydir. Birinchisiniadolatli shohga hadya etish sababidan «Tuxtafus-Sultol» deb atadim. Ikkinchi

devonga oshiqlar unsiyati sababidan «Munisul-ushshoq» nomi berildi. Uchinchisiga faqat ishq holatlaridan gapirilgan vajidan «Mir’otusishq» deb nom qo‘ydim. To‘rtinchi devonga oshiqlar o‘qib hayron bo‘ladilar deb «Hayratda oshiqin» deb nom berildi. Beshinchisi bedillar ishtiyoqi jilvagohi bo‘lgani sababidan «Mazharul-ishtiyoq» deb ataladi.

Tabibiy she’riyatining g‘azal, ruboiy, muhammas janrlarida ijod qilgan. Uning qahramonlari to‘g‘ri fikr, pok muhabbat, odob-axloqi bilan ajralib turadi. Tarbiyaning vatanparvarlik, tinchlik, do‘stlik, sadoqatlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi prinqiplariga shoir asosiy ahamiyat beradi.

Islom shoir Nazar o‘g‘li xalq og‘zaki ijodida shu xalqning hayoti, ruhi orzu-umidlari, insoniy fazilatlari, tarbiyalash uslublari, pedagogik talablari ifodalangan shaxs.

O‘tmishda «dostonchi shoir» deb atalib, nomlari unchalik keng ma‘lum bo‘lmagan o‘zbek xalq shoirlari, ustozlari obro‘-e’tibor topib, xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo‘lmoqdalar.

Islom shoir Nazar o‘g‘li o‘zbek xalq shoirlarining yirik vakilardan biridir. U Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Muhammad Jomrot o‘g‘li Po‘lkan, Abdulla shoir Nurali o‘g‘li kabi xalqimiz yaratgan eng yirik asarlarini bizgacha saqlab, kuylab keldi. Islom shoir zamon mehnatkashlar, xalq, bolalar, kelajak avlod haqida, ularning mehnati, intiliishi hamda fazilatlari to‘g‘risida ajoyib qo‘shiqlar, dostonlar, she’rlar yaratdi.

Nodira baxtli ona bo‘lgan – taqdir unga ikki o‘g‘il ato etgan. Uning saroyda she’riyat va san’at qadrlangan sharoit tarbiyalangan o‘g‘illari ixtiyorsiz ravishda adabiyotga qiziqqan.

Shoiraning katta o‘g‘li Muhammad Alixon yoshlik yillardan boshlab she’riyat bilan shug‘ullangan, saroydagagi she’rxonlik anjumanlarda qatnashgan.

Kichik o‘g‘li Sulton Mahmudxon ma‘lumotli davlat arbobi bo‘lib yetishgan.

Nodira ezgulik va yovuzlik olamini qarama-qarshi qo‘ygan, xonalar va saroy a‘yonlari qiyofasida yozuvlikning ifodasini ko‘rsa, oddiy

xalq vakillarida ezgulikning asoslarini ko‘rgan. U hammani inoqlikka, tinch-osoyishtalikka chaqirgan.

1822-yilda Nodiraning (taxminan 30 yoshlarida) hayotida og‘ir musibat yuz berdi. Uning hayot yo‘ldoshi Amiriy (amir Umarxon) ancha yosh chog‘ida ittifoqo vafot etdi. Ana shu musibat Nodiraning shundan keyingi ijodiy faoliyatida aksini topdi. Umarxonning vafo-tidan so‘ng shoira mamlakatni madaniy jihatdan rivojlantirish borasi-dagi ishlarga faol aralashgan.

Nodira o‘zining aqliligi, mulohaza yuritishi, ezgu ishlari bilan sekin-asta o‘sha davrda kam uchraydigan oqila – Nodirai davron sifa-tida tanilgan va xalqnning hurmat-ehtiromiga sazovor bo‘lgan.

Fozilbekning «Mukammal tarixi Farg‘ona» nomli asarida Mohlaroyim katta qabriston yoniga «Cholpoya» va temirchilik ras-tasi qatoriga «Mohlaroyim» madrasalarini qurdirgani yozilgan, shuningdek, yetimxona va musofirxona barpo etgani, madrasada talaba-lar bepul o‘qitilgani, ularning kiyimlar bilan ta’minlangani, madrasa tokchalarida kitoblar va qo‘lyozmalar to‘plangani aytilgan.

Mutribning yozishicha, Nodiraning tashabbusi bilan eng mash-hur tarixiy asarlarni hamda Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Abduqodir Bedil, Zahiriddin Bobur va ularning zamondoshlaridan qol-gan abadiy yodgorliklarni, ya’ni devonlarni ko‘chirish hamda tarjima qilish ishlari amalga oshirilgan. Nodiraning shaxsan o‘zi xattotlarning ishlashini, kitoblarni aniq, savodli ko‘chirilishi va tarjima qilinishini kuzatib borgan.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o‘ylab ko‘ring.

1. Tarbiyachilik mahoratining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
2. “XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar” matn ma’ruzani o‘rganib chiqing.
3. Ta’lim jarayonida o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar va ijodiy kayfiyatni boshqarish?

**14-mavzu. XIV-XVI asrlarda tarbiya,
maktab va pedagogik fikrlar
(amaliy mashg‘ulot)**

I-topshiriq. Mavzu bo‘yicha mashqni bajaring.



Mashq

**Muammoli vaziyat
Hozirgi zamон o‘qituvchisining pedagogik
faoliyati qanday namoyon bo‘lishi kerak?**

2-topshiriq. Pedagogik faoliyat jarayonida mahoratni Qanday? texnikasi orqali tahlil qiling.

1. Hozirgi zamон o‘qituvchisining pedagogik faoliyati qanday amalga oshiriladi?

O‘qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativ layoqatni, pedagogik texnika sirlarini (nutq, chehra, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) chuqr o‘zlashtirib olishga erishishi lozim.

O‘qituvchi kommunikativ layoqatni, pedagogik texnika sirlarini (nutq, chehra, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) bilishi lozim.

O‘qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahoratni chuqr o‘zlashtirib olishga erishishi lozim.

2. O‘qituvchining ta’lim jarayonida kasbiy omilkorligi qanday tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi?

O‘qituvchilik kasbining mohir ustasi bo‘lish, avvalo, shaxsning o‘z individual xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanish va individual ishlay olish qobiliyatining qanday shakllanganligi bilan bog‘liq.

O'qituvchilik kasbining mohir ustasi bo'lishi, individual xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanish va individual ishlay olish qobiliyatining qanday shakllanganligi bilan bog'liq.

O'qituvchilik kasbining mohir ustasi bo'lish, avvalo, shaxsning o'z individual xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanishi bilan bog'liq.

3. O'qituvchining ta'lif jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorgarligi qanday tashkil etiladi?

Ta'limiyl talablarga har bir darsning ta'limiyl vazifalarini aniq belgilash, darsni turli axborot vositalari bilan boyitish, yangi o'rganilayotgan mavzuni ijtimoiy hayot bilan, turmush tarzi bilan bog'lab mazmunan boyitish va optimallashtirish, so'nggi pedagogik texnologiya yutuqlaridan oqilona foydalanish, turli ta'lif shakli, metodlari va ko'rinishlarini qo'llash, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, darsni yuksak pedagogik mahorat talablari asosida o'tkazishni ta'minlash.

Ta'limiyl talablarga har bir darsning ta'limiyl vazifalarini aniq belgilash, so'nggi pedagogik texnologiya yutuqlaridan oqilona foydalanish, turli ta'lif shakli, metodlari va ko'rinishlarini qo'llash, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, darsni yuksak pedagogik mahorat talablari asosida o'tkazishni ta'minlash.

Ta'limiyl talablarga har bir darsning ta'limiyl vazifalarini aniq belgilash, turmush tarzi bilan bog'lab mazmunan boyitish va optimallashtirish, so'nggi pedagogik texnologiya yutuqlaridan oqilona foydalanish, turli ta'lif shakli, metodlari va ko'rinishlarini qo'llash, darsni yuksak pedagogik mahorat talablari asosida o'tkazishni ta'minlash.

3-topshiriq. Mavzu asosida nuqtalar o'rniga qavsda berilgan so'zlardan mosini topib qo'ying.

1. Tarbiya – o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida kamolot – dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va

mas’uliyatni, kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi (aqliy, jismoniy, ekologik, jamiyatimiz, davlatimiz, yurtimiz).

2. Ta’lim – maxsus tayyorlangan kishilar o’tkaziladigan, o’quvchilarni bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, o’stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir (rahbarligida, faolligida, tizimligida, qobiliyatlarini, bilimlarini, iste’dodlarini).

3. O‘qituvchilar har xil pedagogik modellar va strategiyalar uchun sifatli tadqiqotlarga ishonch hosil qilish va o’sha vaqtda ular uchun san’at va fan bilan shug‘ullanish kerak (ta’lim berish, bilim berish, tarbiya berish).

15-mavzu. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lif-tarbiya va pedagogik fikrlar (ma'ruza)

Eramiz boshlanishidan oldin O'rta Osiyoning janubiy chekkasiiga yaqin bo'lgan joyda O'rta dengiz bilan Hindistonni birlashtiruvch karvon yo'li bo'lgan. So'ngra O'rta Osiyo orqali Xitoydan O'rta dengizga tomon «Buyuk ipak yo'li» ochilgan. Natijada O'rta Osiyo xalqaro savdo-sotiq markazi bo'lib, madaniyati ravnaq topgan. Orta Osiyodagi madaniyat «Buyuk Ipak yo'li» orqali arab mamlakatlari madaniyatining rivojiga ta'sir ko'rsata boshlagan. Ayniqsa, Yunonistonning geografik o'rni va tabiiy sharoitining qulayligi tufayli, undagi madaniyat va ma'rifat boshqa qadimiy mamlakatlarga nisbatan yaxshi rivojlanishi boshlagan.

Yunoniston uncha katta bo'limgan bir qancha quidorlik davlatlaridan iborat mamlakat edi. Uning eng katta davlatlaridan Lakoniya (poytaxti Sparta) va Attika (poytaxti Afina) ayniqsa madaniyat markazi bo'lgan. Bu shaharlarning har qaysisida tarbiyaning boshqa mamlakatlardan farqli alohida tizimi vujudga kelgan va bu tarbiya tizimlari shaharlar nomi bilan yuritilib «Sparta» va «Afina» usulidagi tarbiya deb yuritiladigan bo'lgan.

Yunonistonda madaniyat va maktabning tez rivojlanishi ta'lif-tarbiya nazariyasining paydo bo'lishiga imkon yaratdi. Pedagogika nazariyasiga faylasuflardan Suqrot, Aflatun, Arastu va Demokritlar asos soldilar.

Suqrot (er. avv. 469-699) ning fikricha tarbiyadan qutilgan maqsad, buyumlar tabiyatini o'rganish bo'lmay, balki kishining bilim olishdan maqsadi axloqni kamol toptirish bo'lmoq'i lozim edi. U yaratgan axloqiy etika maktabi kishi axloqi bir necha fazilatlardan – jasurlik, donolik, mo'tadillik, adolatparvarlik va boshqalardan tashkil topgan.

Aflatun (er. avv. 424-347) Suqrotning shogirdi bo'lib, obyektiv idealizm nazariyasining asoschisi edi. Tarbiya, – deydi Aflatun, davlat

tomnidan tashkil etilmog‘i va hukmron guruhlarning, ya’ni faylasuf va jangchilarng manfaatlarini ko‘zlamog‘i lozim. Aflatun o‘zining ta’lim-tarbiya tizimida Sparta va Afina tizimining ba’zi belgilarini birlashtirishga intildi.

Arastu (er. avv. 384-322) ta’lim-tarbiya nazariyasini yaratish va uni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan alloma olim. U Aflatunning shogirdi bo‘lib, o‘z navbatida, makedoniyalik Iskandar Zulqarnaynning us-tozi bo‘lgan. Uning fikricha, olamda uch xil jon bor: o‘simlikdan tarkib topgan jon, u oziqlanishda va urchib ko‘payishda namoyon bo‘ladi; hayvondan tarkib topgan jon, o‘simlik xossalardan tashqari sezgilarda va istaklarda namoyon bo‘ladi; aqlning ifodasi bo‘lgan jon o‘simlik va hayvonot xossalardan tashqari, tafakkur yoki bilish xislatlariga ham egadir. Arastuning fikricha, jonning manna shu uch xiliga muvofiq uch xil tarbiya – jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya va aqliy tarbiya bo‘lishi kerak. Arastu o‘z pedagogik qarashlaraida iroda va faoliyatni asos qilib olgan holda, aqliy tarbiya sohasida ko‘nikma hosil qilishga katta ahamiyat bergen. Arastuning qayd etishicha, har qanday istak va faoliyatda kamchilik, ortiqchilik va o‘rtachalik bo‘ladi. Hamma narsada o‘rtachalik foydalidir. Hamma narsada ortiqchilik kamchilik kabi ziyondir.

Demokrit (er. avv. 460-370) tarbiyani tabiatga muvofiqlashtirish masalasini birinchi bo‘lib ilgari suradi. «Tabiat bilan tarbiya bir-biriga o‘xshaydi» deb yozadi u. Demokrit «ta’lim mehnat asosida go‘zal narsalarni hosil qiladi», deb tarbiya ishida mehnatning roli juda katta ekanligini ta’kidlaydi.

Qadimgi Yunonistondagi tarbiyaviy ishlar shunisi bilan o‘ziga xos ediki, unda bolani jismoniy tomondan chiniqtirish bilan bir qatorda, ma’naviy tomondan barkamol bo‘lishiga ham katta e’tibor berilgan. Bolalarni musiqa, ashula va diniy raqlar tushishga o‘rgatilib, mashg‘ulotlarning mazmuni jangovor harbiy tusda bo‘ldi.

Qadimgi zamondagi ta’lim-tarbiyani o‘rganar ekanmiz, undan quyidagi xulosalarga kelishi mungkin:

Birinchidan, muayyan mamlakat aholisining ta’lim-tarbiya masalalalari xususiy ish bo‘lmay, davlat tasarrufidagi muassasalarining faoliyati bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, ta'lim-tarbiyani bosqichma-bosqich oddiydan murakkab tomon olib borish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, ta'lim-tarbiya jarayoni davlatning mutasaddi kishilari tomonidan tahlil qilinib, tasdiqlangan dastur va reja asosida amalga oshirilishi lozim.

To'rtinchidan, ta'lim-tarbiyani, asosan, uchta katta bo'limgan o'quvchilar guruhi orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, qizlar ta'limini o'g'il bolalar bilan bir qatorda olib borilgani ma'qul.

Oltinchidan, ta'lim-tarbiyani mehnat jarayoni bilan qo'shib olib borishlik yaxshi samara beradi.

Yettinchidan, yoshlar tarbiyasida jismoniy mashqlarga katta e'tibor berilishi kerak.

Sakkizinchidan, jismoniy va aqliy tarbiya bilan bir qatorda nafosat tarbiyasini amalga oshirish lozim.

To'qqizinchidan, ta'lim-tarbiyada doimo me'yor saqlab borilishi zarur, ortiqcha bilim kam bilim berilgandan ham katta ziyon yetkazadi.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o'ylab ko'ring.

1. Dastlabki maktablarning vujudga kelishi va ularning mazmuni haqida nimalarни bilasiz?

2. "XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar" matn ma'ruzani o'rganib chiqing va taqqoslang.

**15-mavzu. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida
Turkiston o'lkasida ta'lif-tarbiya va pedagogik fikrlar
(*amaliy mashg'ulot*)**

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan mashqni bajaring.



Mashq

Muammoli vaziyat

**O'qituvchining dars davomidagi hamda darsdan
keyingi ijodiy holatini tashkil etish mahoratining
ahamiyatli tomoni nimada deb o'ylaysiz?**

**2-topshiriq. Mavzu asosida nuqtalar o'rniqa qavsda berilgan
so'zlardan mosini topib qo'ying.**

1. O'qituvchi – pedagogik va psixologik jihatdan o'z bo'yicha maxsus ma'lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga boy, ta'lif muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir (ixtisosligi, malakasi, mutaxassisligi).
2. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni va nafaqat shaxs kamoloti, balki taraqqiyotini ham belgilovchi muhim ahamiyatga molik bo'lgan omil ekanligi ta'kidlanadi (jamiyat, davlat, maktab).
3. O'qituvchi mamlakatimizning ijtimoiy va siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli berishi lozim (ma'lumotlarni, axborotlarni, mavzularni).
4. O'qituvchi ta'lif-tarbiyaviy faoliyatda pedagogik va texnologiyalarining eng samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim (axborot, zamonaviy, innovatsion).

3-topshiriq. Quyidagi testni bajaring.

1. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z ustida ishlashi uchun qanday vazifalarini bajarishi lozim?

- a) O‘quv dasturlarini egallashda yuksak professional saviyada ta’lim berishni ta’minalash, pedagogik nazokatga rioya qilish, o‘z ko‘nikmasi va professional mahoratini takomillashtirish
- b) Axborot berish, rivojlantirish, ta’sir etish, bilimga munosabatni shakllantirish, harakatga intilishni uyg‘otish
- c) O‘z-o‘ziga ko‘rsatma berish, o‘z-o‘zini ishontirish, o‘z-o‘zini majbur etish, o‘z-o‘ziga buyruq berish
- d) Ekstensiv, taxminiy, metodologik, kommunikativ, psixologik hamkorlikdagi ijodkorlik

2. «O‘qituvchi» atamasiga berilgan ta’rifning qaysi biri mu-kammal?

- a) O‘qituvchi – yoshlarga ta’lim-tarbiya beruvchi kishi
- b) O‘qituvchi – inson qalbining muhandisi
- c) O‘qituvchi – ziyo nurini taratuvchi
- d) O‘qituvchi – murabbiy, ustoz

3. Yosh o‘qituvchi o‘zining ish faoliyatida qanday psixologik to‘siqqa duch keladi?

- a) Do‘stlik, hamjihat bo‘lib ishlash, xizmatdagi moslik
- b) Yolg‘on xushomad qilish, kasbga bo‘lgan salbiy munosabat, yoqtirish-yoqtirmaslik
- c) Ijtimoiy, sinfdan qo‘rqish, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasida oraliqning hosil bo‘lishi
- d) Mensimaslik, buyruq, ayblash

4. Dars tipini aniqlashda nima asos bo‘lib xizmat qiladi?

- a) O‘qitish konuniylari
- b) Darsning mazmuni
- c) Darsda hal etiladigan asosiy ta’limiy vazifalar
- d) O‘qitish prinsiplari

16-mavzu. Xorijiy mamlakatlarda ilg‘or pedagogik g‘oyalar. G‘arbiy Yevropada maktab, maorif hamda pedagogik fikr taraqqiyoti (ma’ruza)

O‘rta asr G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ikki guruhga bo‘lingan va yetti fanni o‘z ichiga olgan ta’lim dasturi mavjud bo‘lgan. Birinchi guruh uchta fandan iborat bo‘lib, unga lotincha «trivium» nomi berilgan. U grammatika, ritorika va dialektikani o‘z ichiga olgan. Ikkinci guruh to‘rt fandan iborat bo‘lgani uchun uni lotincha «kvadrum» deyildi. U arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa fanlarini o‘z ichiga olgan.

Hamma fanlarning toji deb teologiya hisoblanar edi. O‘rta asrlarda beriladigan ta’lim dasturi cherkov maktablari orqali amalga oshirilar edi. O‘rta asrlardagi yevropa xotin-qizlar, ayniqsa, mehnatkashlarning qizlari yoppasiga savodsiz edilar.

Yevropada birinchi universitetlar XIII asrning ikkinchi yarmida Italiyada (Baloniya shahrida), Anglyada (Oksford shahrida), Fransiyada (Parijda) tashkil qilindi.

Universitetlarning vujudga kelishida o‘sha davrdagi ko‘p yevropaliklarning Sharq ma’naviyati va madaniyati bilan tanishuvi katta ta’sir ko‘rsatdi.

Arablar tomonidan VIII asr boshlarida istilo qilingan Ispaniyada tashkil qilingan arab oliy o‘quv yurtlari yevropa universitetlari uchun ma’lum darajada namuna bo‘ldi va yevropada «Uyg‘onish» davri yuzaga keldi.

«Uyg‘onish» davridagi ta’lim-tarbiya. Yevropa «Uyg‘onish» davri yer yuziga o‘nlab maorif olimlarini yetishtirib berdi. Shularning eng mashhuri, pedagogika nazariyasiga salmoqli hissa qo‘shtigan alloma olim Yan Amos Komenskiy (1592-1670). 1632-yili Komenskiy «Buyuk didaktika» degan katta pedagogik asarni yozgan. Undan tashqari, «Ona maktabi» degan maktabgacha tarbiya qo‘llanmasi va

boshqa bir qancha kitoblari dunyo yuzini ko'rdi. Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiyatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. «Buyuk didaktika»da o'qitish tabiiylikka bo'y sunishi kerak deyilgan. Bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiyatdagi o'sish jarayoniga o'xshash bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi bolani tarbiyalaganda, bog'bon daraxtning biologik o'sish qonuniyatini hisobga olgan kabi, undagi tabiiy bilish xususiyatini hisobga olishi shart. Komenskiy o'qishga hammaning tortilishini, hamma umum-ta'lim olishi kerakligini uqtiradi. U birinchi bo'lib, sind-dars tizimini ishlab chiqdi. «Buyuk didaktika»da o'qitishning didaktik prinsiplari berilib, dars jarayonida o'qituvchi ularga suyanishi kerakligi uqtiriladi. Maktabda o'quv yili va uni choraklarga bo'lish, ta'tillar berilishini, o'quv kunini ona tili mакtabida 4 soat, lotin maktabida 6 soat qilib belgilab beradi. O'quvchilar bir vaqtda maktabga qabul qilinib, o'qish kuzda – sentyabrdan boshlanishi kerak, deb hisoblaydi.

Logann Genrix Pestalotsi (1746-1827) 1774-yilda Neygofda «Kambag'allar muassasasi» ni ochib, yetim va boqimsiz bolalardan 50 ga yaqinini shu muassasada o'zi o'qita boshlaydi. Pestalotsi hamma odamlar ta'lim olish huquqiga ega bo'lishi lozim, deb maktablar jamiyatini ijtimoiy jihatdan o'zgartirishning muhim vositalaridan biri bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Pestalotsining fikricha, mehnat odamni tarbiyalash va o'stirishning eng muhim vositasi, mehnat odamning jismoniy kuchinigina emas, aqlini ham o'stiradi, unda ahloqni ham tarkib toptiradi. Elementlar ta'lim nazariyasi Pestalotsining pedagogik tizimining o'zagidir, bu nazariyaga ko'ra tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib, asta-sekin murakkabroq darajaga ko'tarilib borishi lozim. Bolalarda yozuv malakasini hosil qilish uchun Pestalotsi dastlab harf elementlarini, to'g'ri va egri chiziqlarni mashq qilishni tavsiya etgan.

Robert Ouen (1771-1858) o'zining 1813-yilda nashrdan chiqqan «Jamiyatga yangicha qarash yoki insonda xarakterni tarkib toptirish to'g'risidagi tajriba» degan asarida odamning xarakteri, uni o'rab turgan ijtimoiy muhit sharoiti bilan tarkib topadi, deb ta'kidlaydi. Uning-

cha, odamlarning illatlari va xatti-harakatlari ular yashab turgan ijtimoiy muhit vaziyatiga bog‘liqdir. Odam, – deydi Ouen, – o‘z xarakterini hech qachon o‘zi yaratgan emas va uni yaratishi mumkin ham emas. Uning fikricha, agar biz muhit sharoitini va tarbiyani o‘zgartir-sak, har qanday xarakterni tarkib toptirishimiz mumkin. Robert Ouen bolalarga bir yoshdan boshlab ijtimoiy tarbiya berish g‘oyasini olg‘a surib, uni asoslab berdi va amalda sinab ko‘rdi. U jahonda birinchi bo‘lib ishchilar bolalari uchun maktabgacha muassasasi barpo etdi. Uning ta’lim muassasida aqliy va jismoniy tarbiya berilib, bolalar jamaoa ruhida tarbiyalanar edilar.

Iogann Fridrix Gerbard (1776-1841) o‘zining «Tarbiya muassalaridan kelib chiqqan umumiy pedagogika», «Psixologiya darsligi», «Psixologiyani pedagogikaga tadbiq qilish to‘g‘risidagi xatlar», «Pedagogikaga doir leksiyalar ocherki» degan kitoblarida pedagogika nazariyasiga doir fikrlarni bayon qilib berdi. U pedagogika nazariyasiga tarbiyalovchi ta’lim tushunchasini kiritdi va ta’limsiz tarbiya bo‘lmaydi, dedi. Gerbard ta’lim qiziqishlarning xilma-xilligiga asoslanishi lozim deb, qiziqishlarni oltita mustaqil turga bo‘ladi. U ta’lim bosqichlari nazariyasini ishlab chiqdi, bu nazariya hamma mamlakatlar pedagoglari orasida keng tarqaldi. Gerbard axloqiy tarbiyaning o‘ziga xos vositalar tizimini ham ishlab chiqqan.

Yevropa va AQShda klassik o‘rtta maktablar ko‘p jihatdan Gerbard pedagogikasiga asoslangan Gerbardning bolalarni boshqarish tizimi keng yoyildi. Bu tizim bolalar tashabbusini bo‘g‘ishga va ularning kattalar obro‘siga hech so‘zsiz bo‘ysundirishga qaratilgan. Bu esa Forobiy, Ibn Sino va Yan Amos Komenskiylarning g‘oyalariga zid edi.

Adolf Disterverg (1790-1866) takomillashib boruvchi ta’lim didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta’limning 33 qonun va qoidasi tariqasida bayon qilib berdi. Disterverg taklif qilgan ko‘rsatmali ta’lim «yaqindan uzoqqa», «oddiydan murakkablikka», «ma‘lumdan noma‘lumga» o‘tish kerak degan qoidalari bilan bog‘liq ta’limdir. Disterverg o‘qituvchi takrorlab turishni maslahat bera-di. Distervergning fikricha «yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib berib qo‘ya qoladi, yaxshi o‘qituvchi esa haqiqatni topishga o‘rgatadi».

Rossiyaga ham XIX asr boshlarida «Uyg'onish» davri yetib kelib, bir necha ko'ringan pedagog olimlar yetishib chiqqan. Shulardan bir mashhur rus pedagog olimi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiydir (1824-1870). Uning pedagogika sohasidagi asosiy nazariy asari «Kishi tarbiya predmeti sifatida» degan pedagogik antropologiyadan tajribasi bo'lib, u ikki jilddan iborat bo'lgan. Ushinskiy rus pedagogikasining o'ziga xosligini, milliy xususiyatlarini himoya qildi, shuningdek tarbiya xalqchil bo'lishi lozim, deb hisobladi, bolalarni mehnat orqali tarbiyalashga katta e'tibor berdi. Ta'limning mazmuni, tamoyillari, shakl va usullarini ishlab chiqishda ham ko'p ishlar qildi. U ta'limning ko'rgazmaliligi, ongli va uzviy olib borish masalalarini ishlab chiqdi, o'qitishning shakli va usullarining rang-barangliligiga erishishni talab etdi.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o'ylab ko'ring.

1. O'quvchilar jamoasida o'qituvchi tomonidan ishontirish va ta'sir etish usullaridan foydalanish haqida tushunchaga egamisiz?
2. "Xorijiy mamlakatlarda ilg'or pedagogik g'oyalari. G'arbiy Yevropada maktab, maorif hamda pedagogik fikr taraqqiyoti" ma'ruzani o'rganib chiqing va qiyosiy tahlil qiling.

16-mavzu. Xorijiy mamlakatlarda ilg'or pedagogik g'oyalari.

**G'arbiy Yevropada maktab, maorif hamda pedagogik fikr taraqqiyoti
(amaliy mashg'ulot)**

I-topshiriq. Mavzu yuzasidan mashqni bajaring.



Mashq

Muammoli vaziyat

**Xorijiy davlatlarda ta'lim tizimining
ahamiyatli tomoni nimada deb o'ylaysiz?**

2-topshiriq. Sizningcha NIMA UCHUN? dars va darsdan tash-qari jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot, unga qo‘yiladigan talablar qo‘llash kerak deb o‘ylaysiz?

Nima uchun?	Javob
O‘qituvchining ta’lim jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorgarligi NIMA UCHUN amalga oshiriladi?	<p>O‘qituvchining tashxislashida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari, ularning faoliyatlarini va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlarini, bilimdonlik darajasi, bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo‘ladi.</p> <p>O‘qituvchining xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qibiliyatlarini, bilimdonlik darajasi, bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo‘ladi.</p> <p>O‘qituvchining tashxislashida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari, qiziqish va qibiliyatlarini, bilimdonlik darajasi, bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo‘ladi.</p>
Sizningcha NIMA UCHUN tarbiyachilik mahoratining tarkibiy qismlarini dars mashg‘ulotlari-da qo‘llash kerak deb o‘ylaysiz?	<p>Pedagogik metod, usul va vositalarni rejali va kutilgan natijalarga erishishga imkon beradigan, shaxsga va jamoaga aniq tasir ko‘rsatadigan jihatlarini tanlash tizimidir.</p> <p>Pedagogik metod, usul va vositalarni, shaxsga va jamoaga aniq ta‘sir ko‘rsatadigan jihatlarini tanlash tizimidir.</p> <p>Pedagogik natijalarga erishishga imkon beradigan, shaxsga va jamoaga aniq tasir ko‘rsatadigan jihatlarini tanlash tizimidir.</p>
Dars – ta’lim jarayonining asosiy shakli NIMA UCHUN shunday deyiladi deb o‘ylaysiz?	<p>Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shaklidir.</p> <p>Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shaklidir.</p> <p>Dars bevosita o‘qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shaklidir.</p>

17-mavzu. Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari va uning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati (ma'ruza)

Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turli-cha izoh beradi. Jumladan, “Pedagogika ensiklopediyasi”da ta’rif quyidagicha izohlangan: “O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”. Ushbu ta’rifning mohiyatidan ke-lib chiqib o‘qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak kursatkichi.

2. O‘z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.

4. O‘quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

– pedagogik insonparvarlik talablariga bo‘ysunishi;

– kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish;

– pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish;

– pedagogik texnika sirlarini puxta egallah.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta’lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o‘qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim.

Bu maqsad bo‘lajak o‘qituvchilarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.
 2. Pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta’lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.
 3. Bo‘lajak o‘qituvchilar milliy urf-odat va an’alarimizda va O‘rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallahsga nisbatan o‘zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.
 4. Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko‘nikma va malakalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.
 5. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so‘nggi zamонавиј метод va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o‘zlashtiradilar.
 6. O‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.
 7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to‘g‘risida o‘qituvchilar uzlusiz ma’lumotlarni o‘rganib boradilar.
 8. Yuksak zamонавиј axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o‘z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.
- Xo‘sh, pedagogik mahoratning o‘zi nima? Unga hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan qandauy ta’rif beriladi?
- Pedagogik mahorat – o‘qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayriyohligi, insonparvarligi, mehribonligi) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati) fazilatlarini belgilovchi xussusiyat bo‘lib, o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi faoliyatdir.

O‘qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

1) o‘qituvchining shaxsiy fazilatlar bo‘yicha tayyorgarligi;

2) o‘qituvchining ruhiy-psixologik tayyorgarligi;

3) o‘qituvchining ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-nazariy jihatdan tayyorgarligi;

4) O‘qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta’minlovchi omillar quyidagilar:

a) ixtisoslik bo‘yicha o‘quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o‘quv fanlari bilan o‘zaro aloqadorligini ta’minlash malakasiga ega bo‘lishi;

b) ta’lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini obektiv nazorat qilishi va baholashi;

s) ta’lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o‘z faoliyatini tashkil etishi;

d) o‘quv-tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik-psixologik va metodik ma’lumotlarga ega bo‘lishi;

e) fanlarni o‘qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilishi;

f) jamoani «ko‘ra bilish», o‘quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ularning hayot faoliyatlarida uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo‘la olish, o‘z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta’sir ko‘rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo‘lishi;

g) o‘z shaxsiy sifatlari (nutqining raxonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo) ni takomillashtirish malakasiga ega bo‘lishi.

O‘qituvchining pedagogik mahorati pedagogika oliy ta’lim muassasalarida shakllanib boradi. Yuksak saviyali pedagogik kadrlar

tayyorlashga nisbatan talablar, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, o‘z kasbi bilan uzlusiz taraqqiyotga moslasha oladigan o‘qituvchining shakllanishi, bo‘lajak o‘qituvchi umummilliy mavqeining o‘sib borishini ta’minlaydi.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o‘tmish qadriyatlar, O‘rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo‘lish, ilg‘or xorijiy davlatlarning o‘qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o‘rganish jarayonida tarkib topadi.

O‘qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko‘nikmalarni oshirib borish. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o‘qish hamda treninglar) da faol ishtirok etish.

Pedagogik mahoratga ega bo‘lish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlash garovi bo‘libgina qolmay, ayni vaqtida o‘qituvchilarning jamoada, ijtimoiy muhitda obro‘-e’tiborini oshiradi, o‘quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Pedagogik mahoratning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning o‘qituvchi shaxsi va kasbi to‘g‘risida mukammal ma’lumot va tushunchalarga ega ekanligidadir. O‘qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishi bilan birga, kasbiy, ya’ni ixtisoslik fazilatlariiga ham ega bo‘lishi lozimligini tajriba ko‘rsatmoqda. Buni yuqorida kasb axloqi to‘g‘risida bildirilgan fikrlar misolida ham ko‘rdik.

Shaxsiy sifatlar tizimida: milliy mafkuraviy onglilik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlik, o‘z kasbiga sadoqat va vijdoniylilik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat‘iylik, har qanday vaziyatda o‘zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylilik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalalilik kabi fazilatlarga ega bo‘lishi kerak.

Kasbiy sifatlar tizimida: pedagogik ziyraklik, O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li mohiyati, beshta tamoyil rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlarini bilishi, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini chuqur anglash, chuqur ilmiy nazariy salohiyati, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal biliш, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatları, urf-odatlarini yaxshi anglashi, siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lakashunoslik, texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilim-larga ega bo'lish va hokazo.

Ta'lif va tarbiya jarayoni har bir o'qituvchidan ulkan aql-zakovat, sabr-toqat, matonat, o'quvchilarga va o'z kasbiga yuksak mehr-muhabbatli bo'lishni talab etadi. O'qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib borishi, o'quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o'sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi na zarur paytda so'z, ish yoki amaliy harakat bilan yordam bera olish qobiliyati ta'lif va tarbiya jarayonining mu'affaqiyatini ta'minlovchi omillardir.

Pedagogik kasb – bu barkamol inson sifatida xarakterlanuvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarning barqaror tizimidir. O'qituvchi o'z kasbiga ixlos qo'yishi va uning ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishi, bolalarga ta'sir o'tkazishi va ular bilan hamdardligini namoyon qila olishi shunday fazilatlar majmuasidirki, ular o'qituvchi faoliyati va muloqoti bilan uyg'unlashganda o'qituvchi mehnatinining bir butunligiga erishiladi.

O'qitish va tarbiyalash – bular bir-biridan ancha farqli tushunchalardir. O'qituvchi o'z kasbining to'la ma'nodagi egasi bo'lishi uchun atrof-muhitidagi odamlar orasida hurmat-e'tibor qozona olishi kerak. O'qituvchi hamma joyda madaniyatli murabbiy, ezgu fazilatlar egasi sifatida namuna bo'lishi zarur.

O'qituvchining mahorati pedagogika oliy ta'lif muassasalarida bilim va malakalarni egallash davridayoq, shakllanib boradi. Peda-

gogik kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi kasbga moslashishi, tanlangan kasb ichidagi uzlucksiz taraqqiyotga moslasha oladigan, keng ma'nodagi o'qituvchining shakllanishiga bo'lgan talabga muvofiq holda bilimlarning pedagogik-psixologik va umummilliy mavqeining o'sib borishida aks etmog'i lozim.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o'ylab ko'ring.

1. "Mahorat" deganda nimani tushunasiz?
2. "Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari va uning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati" matn mavzusini o'qib chiqing.
3. Pedagogik mahoratni pedagogik faoliyatda namoyon bo'lishi haqida fikr-mulohazalar yuriting.

17-mavzu. Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari va uning o'qituvchi (amaliy mashgulot)

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan quyidagi mashqni bajaring.

 Mashq	Muammoli vaziyat Pedagogik mahoratning mohiyatiga izoh bering.
--	---

2-topshiriq. Quyidagi terminlarni ketma-ketlikda joylashtiring.

Termin	Ta'rif
Pedagogik faoliyat	Yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir.

Pedagogik mahorat	O'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir.
Pedagogik kasb	O'qituvchi o'z kasbiga ixlos qo'yishi va uning ijtimoiy ahamiyatini tushunib etishi, bolalarga ta'sir o'tkazishi va ular bilan hamdardligini namoyon qila olishi shunday fazilatlar majmuasi.

3-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mazmun jihatidan qavsda berilgan so'zlardan mosini yozing.

1. Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi (pedagogik faoliyatda, ta'lim jarayonida, pedagogik boshqaruvda, hamkasblar, rahbarlar, o'qituvchilar).

2. Ta'lim va tarbiya har bir o'qituvchidan ulkan aql-zakovat, sabr-toqat, matonat, o'quvchilarga va o'z kasbiga yuksak mehr-muhabbatli bo'lishni talab etadi (jarayoni, faoliyatini, mazmunini).

3. O'qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib borishi, o'quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o'sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi na zarur paytda so'z, ish yoki amaliy harakat bilan yordam bera olish ta'lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlovchi (qobiliyati, mahorati, munosabati, omillardir, tamoyillardir, vositalardir).

4. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi va ularga xolisona berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli doimiy bera olishi lozim (baholatija, samara, ma'lumotlarni, axborotlarni, tamoyillarni).

18-mavzu. Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi (*ma’ruza*)

Faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart-sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig‘indisidir.

Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyat. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfda ijobjiy ruhiy iqlim yarata oladi.

Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat. O‘qituvchining o‘z hatti-harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yunaltiradi, vaqt ni harakat sur’ati bilan his qiladi, o‘zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.

Qobiliyat shaxsning ham umumiyligi, ham maxsus rivojlanishida tezroq oldinga siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta’minlaydi. Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirlita oladi.

Ko‘nikmalar – o‘qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli.

Pedagogikada o‘qituvchi qobiliyati – bu imkoniyatdir, uning mo‘hirligi zaruriy darajasi faqatgina o‘qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug‘ma qobiliyatlar zehn deyiladi. Iqtidor, iste’dod, daholik – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar xarakter kabi, shaxsning faqatgina ma’lum faoliyatidagina mavjud bo‘lgan sifatlaridir.

Psixologiyada qobiliyat – insonning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va bi-

ror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishiga aytildi. U o‘qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo‘ladi.

Kasbiy faoliyatning ta’lim mazmunini belgilovchi sifatlari o‘qituvchining ijodkorligida namoyon bo‘ladi. Ijodkorlik – bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

Mahsuldor ijodkorlikda belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi, bu jihatlar ijod qilishga layoqatli bo‘lgan o‘qituvchilarning asosiy qismida namoyon bo‘ladi.

Evristik ijodkorlik, jamiyatda ro‘y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o‘zlashtirish va targ‘ib qilishni anglatadi, ya’ni uning asosida g‘oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensifikatsiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimolligini, ishonchliligini) izhil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.

Kreativ ijodkorlikda o‘qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o‘z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o‘qituvchilargina bunga erishishi mumkin.

Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarining fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui insонning iste’dodi deyiladi.

Insondagi bilish va layoqat nishonalari jarayonlarining yig‘indisi, iste’dodining yuksak cho‘qqisi – uning intellektini belgilaydi. “Intellekt – bu aqlan ish ko‘rish, ratsional fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning global qobiliyati” (Veksler), ya’ni intellekt insонning atrof-muhitga to‘liq moslasha olish qobiliyati deb qaraladi.

Kishidagi tabiiy layoqat nishonalari mukammal kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatli olib borilishini ta’minlamaydi. Kishi o‘zidagi layoqat nishonalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi kerak, bu esa faqat shijoatli kasbiy faoliyat jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

Pedagogik qobiliyatlar o‘z funksiyasiga ko‘ra umumiy va maxsus turlarga bo‘linadi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo‘lganda o‘qituvchi o‘z pedagogik kasbiy faoliyatini mukammal egallab, mohirona olib

borish bilan birga, boshqa turli xil faoliyatlar bilan ham muvaffaqiyatli shug'ullanadi. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar ta'lif-tarbiya jarayonida har qanday qiyinchilik va ziddiyatlarni qiyalmasdan bartaraf etadilar.

O'qituvchining pedagogik qobiliyatini tahlil qilgan N.V. Kuzmina shunday yozadi: "Ta'lif-tarbiyada ro'y beradigan ko'pgina kamchiliklar o'qituvchi o'z pedagogik qobiliyatining amaliy yo'nalishlarini yaxshi bilmasligi, iste'dodning o'qituvchida yo'qligi natijasida ro'y beradi".

Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar faqat o'zлari egalagan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha muayyan faoliyat bilan muvafiqiyatli shug'ullanadilar.

Biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi *talant* deyiladi.

Barcha mutaxassisliklarda bo'lgani kabi o'qituvchilik kasbida ham pedagogik qobiliyat uning shaxsiy iste'dod xususiyatlarini belgilab, kasbiy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirishda subyektiv shart-sharoitlar yaratadi.

Har qanday qobiliyat – shaxsga tegishli bo'lgan murakkab tushunchadir, u faoliyatning talablariga mos xususiyatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi.

Har qanday faoliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda o'z qobiliyatini ko'rsata oladi, agar xususiyatlaridan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatining muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli, deb xarakterlanadi.

Mana shuning uchun ham qobiliyat deganda bironta xususiyatning o'zini emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oладиган va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambl yoki sintezini tushunish lozim.

O'qituvchi qobiliyatini o'rganishda xususiyatlar «ansambl» iborasini biz shuning uchun ham ishlamatmizki, bunda xususiyatlar ning oddiygina birgalikda mavjud bo'lishini emas, balki ularning

uzviy bog‘langan bo‘lishini, muayyan tizimda o‘zaro ta’sir qilishi ni ko‘zda tutyapmiz. Bu tizimda xususiyatlardan biri oldingi o‘ringa chiqib, yetakchi xususiyatga ega bo‘lsa, ayni vaqtda boshqalar uchun yordamchi xususiyatlar rolini o‘ynaydi.

Pedagogik-psixologiyada o‘qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo‘q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko‘payib va o‘zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha “o‘zgarmas irsiyat” nasldan naslga o‘tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari ajratib ko‘rsatilgan:

- o‘z kasbiga muhabbat, o‘quvchilarni seva olishi;
- mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi;
- pedagogik taktga (odob va go‘zallikka) ega bo‘lish;
- bolalar jamoasiga singib keta olish;
- o‘z mehnatiga ijodiy yondashish;
- javobgarlikni his etish;
- tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O‘qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o‘ziga xos tizimlari mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlar bilan farqlanadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- yetakchi xususiyatlar;
- yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qibiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samaraли bo‘lishini va shart-sharoitini ifodalamasdan, balki ko‘p jihatdan muvaffaqiyatli ishlashning natijasi hamdir. Pedagogik qobiliyatda o‘qituvchining o‘zaro fikr almashuvi bilan bog‘liq xususiyatlari asosiy rol o‘ynaydi. Quyidagi pedagogik qobiliyatning asosiy xususiyatlari o‘qituvchining yuksak pedagogik-psixologik bilimlari natijasida doimiy shakllanib boradi.

Kommunikativ qobiliyat: o‘qituvchining pedagogik jamoa va otanolar, mahalla ahli bilan bo‘ladigan o‘zaro muloqotida, ularning ruhiy

holatlarini tushunish va ularga hamdard bo‘lish, muloqotga kirishishida pok ko‘ngillilik. O‘qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo‘lishi, muomala madaniyatini muntazam o‘zida shakllantirib borishi lozim.

Pertseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya’ni kuzatuvchanlik muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O‘qituvchi o‘quvchining psixologiyasini, psixik holatini o‘ziga singdirib idrok etadi, sinf ja-moasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

Empatik qobiliyat: bolalarga bo‘lgan muhabbatdan kelib chiqadigan o‘quvchilarining his-tuyg‘usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

Ta’lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyat: o‘qituvchi o‘z bilimini o‘quvchi ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga yetkaza olishi, ta’lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.

Didaktik qobiliyat: o‘quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta’lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqr o‘zlashtirgan holda samarali dars berish qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qis midir. U sinf o‘quvchilarining o‘qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariiga, to‘garaklarga jalg qila olishida, sinf jamoasining har bir o‘quvchiga faol vaziyatni ta’minlab berishida namoyon bo‘ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o‘qituvchining o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni puxta rejalashtirishi asosida yuzaga keladigan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan ko‘ra olishi.

Bilish qobiliyati: o‘qituvchining o‘z fanini va boshqa fanlarni chuqr bilishida, o‘zlashtirishi va amaliyotda namoyon etishi.

Anglash (tushunish) qobiliyati: o‘qituvchining ziyrakligi va ud-daburonligi, voqeja va hodisalarini chuqr idrok etib, ularga adolatli munosabatda bo‘lishi.

Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan yordamchi xususiyatlar va hislatlar quyidagilardan iborat:

- aql-idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik, kamchiliklarga tanqidiy e'tibor, sobitqadamlik;
- o'qituvchining nutqi – notiqlik san'ati, so'z boyligining teranligi;
- aktyorlik xususiyati – mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish.
- pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo'lish.

O'qituvchining fikr almashuvi bilan bog'liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o'quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo'lib, nihoyatda murakkab jarayonda takomillashadi.

O'zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog'liq bo'lган kommunikativ qobiliyatning quyidagi yunalishlari mavjud:

- o'quvchilarни ishontirish;
- o'quvchilar ongiga ta'sir etish;
- o'zgalarga taqlid qilish.

Ongga ta'sir – shunday bir psixik jarayonki, o'quvchilar o'qituvchining yoki biror shaxsning ta'siri ostida, o'z ongingin yetarli nazoratisiz voqelikni idrok etadi. Agar o'qituvchi bunda pedagogik mahoratga, psixologik tajriba va bilimlarga ega bo'lmasa, o'quvchilar ongiga ta'sir qila olmaydi, natijada ta'lim-tarbiya jarayoni ijobiy nati-jalar bermaydi, o'qituvchi o'quvchilarning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'la olmaydi. O'quvchi ongiga ta'sir o'tkazishda o'qituvchi yetak-chilikni o'z qo'liga kiritishi uchun:

- o'quvchilarning salbiy xatti-harakatlari tufayli sodir bo'ladigan emotsional his-tuyg'ularga berilmasligi;
- har bir o'quvchining psixologik va ruhiy holatini puxta o'r-ganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmasligi;
- har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat e'tibor bilan munosabatda bo'lishi;
- sind jamoasining norasmiy yetakchisini sezdirmsandan aniqlab olishi va uning hatti-harakatidan doimo ogoh bo'lishi;
- pedagogik mahoratning muhim jihatlarini uzluksiz o'zida takomillashtirib borishi;
- o'ylanmay aytilgan har bir so'z, noo'rin fikr-mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo'lmasligini o'quvchi doimo his etishi lozim.

Alovida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda axborot texnologiyalari maydonining nihoyatda kengligi tufayli o'quvchilar ongi tarbiyaga salbiy ta'sir o'tkazuvchi g'oya va mafkuralar bilan band bo'lishi tabbiy hol. O'qituvchilar yosh avlodni tarbiyalashda ongga ta'sir qilishning keng imkoniyatlarini o'z o'mnida qo'llay olsalar, o'quvchilar ongini turli keraksiz g'oyalar va mafkuralardan himoya qila oladilar. Shuni unutmaslik kerakki, o'quvchilar o'zlarining yosh xususiyatlari va psixologik ta'sirga moyilligi tufayli har qanday ta'sirga beriluvchan bo'ladi.

Taqlid qilish shaxsning psixologik xususiyati bo'lib, o'zi sevgan biror inson harakatiga, namunasiga, ibratiga amal qilishidir. O'quvchi o'zi uchun ideal deb bilgan kishining xulq-atvor namunalariiga ongsiz ravishda taqlid qiladi. O'quvchilar o'zgalar xulq-atvoridan andoza olib, taqlid qilish yo'li bilan ulardan o'zining muhitida foydalanadi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish o'qituvchining muhim kommunikativ qobiliyatlaridan biri bo'lib, avvalo o'qituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati, munosabatga kirishishi va nutq madaniyati asosida o'quvchilar bilan muntazam tarbiyaviy faoliyat olib borish jarayonida namoyon bo'ladi.

Pedagogik ta'sir ko'rsatish – tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini takomillashtirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida tarbiyalash, ijtimoiy ong va xulq-atvorni xalqimizning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, unda ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullari: talab, istiqbol, rag'batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Talab – ta’lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. O‘quvchining u yoki bu xatti-harakati o‘qituvchi nazoratida bo‘lib, ijobiy jihatlari rag‘batlantirib boriladi yoki aksincha nojo‘ya xatti-harakati to‘xtatib qo‘yiladi.

Istiqlol – ta’sirchan pedagogik usul bo‘lib, o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma’lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish hisini takomillashtiradi. Bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlari da, qiziqish va muddaolarida namoyon bo‘ladi. Ushbu usul maktab o‘quvchilarini shaxs sifatida eng muhim insoniy fazilatlaridan biri bo‘lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantiradi.

Rag‘batlantirish va jazolash – tarbiyaviy ta’sirning eng an’aniyi usuli bo‘lib, o‘quvchilar xulq-atvoriga ijobiy ta’sir etishdan iborat. Yaxshi xulq, foydali mehnat va xatti-harakat, axloqiy xislat, topshiriqlarning so‘zsiz bajarilishi uchun o‘quvchi rag‘batlantiriladi. Nomaqbul xatti-harakat, tartibbuzarlik, o‘z burchini bajarmaslik jazolash orqali bartaraf etiladi. Ushbu usul axloqiy ta’sir ko‘rsatishni ta’minlaydi, uni qo‘llash jarayonida o‘qituvchidan ehtiyojkorlik, sezgirlik va hushyorlik talab etiladi.

Jamoatchilik fikri – tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning eng muhim usuli bo‘lib, o‘quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalariga qarab muntazam rag‘batlantirib borishda namoyon bo‘ladi. Jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ma’lum bir yo‘nalishda amalga oshirilishini ta’minlaydi, o‘quvchilarning bir-birlariga do’stona munosabatini shakllantiradi.

O‘qituvchi tarbiyalanuvchilarning o‘zaro tarbiyaviy ta’sirga ega ekanliklarini, ularning o‘zaro kommunikativ munosabatlari hamda faoliyatları o‘rtasidagi bog‘lanishning mayjudligi, uning samaradorligini belgilashini unutmasligi shart. O‘qituvchi sinf jamoasiga va alohida tarbiyalanuvchiga pedagogik ta’sir ko‘rsatishida muvaffaqiyatlarga erishishi uchun o‘quvchilar orasida o‘zaro pedagogik munosabatlar tizimini oqilona rejalashtirishi va psixologik muhitni ijobiy tomonga o‘zgartirishi lozim. To‘g‘ri tashkil etilgan va har jihatdan mukammal bo‘lgan, yosh avlodning qalbi va ongini asrashga, ularni

milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik munosabatlar tizimini tashkil etish uchun o'qituvchi har bir o'quvchi ruhiyatini chuqur bilib olishi, ularning ichki imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi, axborot berishi, fikr almashishi, ular qayg'usini, tuyg'ularini tushunishi va hamdard bo'lishi zarur. Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi:

- o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;
- munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiyligi va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatish;
- munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarish;
- munosabatning ijobiliy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim.

O'qituvchi tarbiyachi sifatida tarbiyalanuvchi o'quvchilarni o'zi uchun hamisha tarbiya obyekti deb hisoblashi kerak. Biroq tarbiyalanuvchi o'qituvchi-tarbiyachi bilan erkin va ongli munosabatda bo'lishga erishsagina, tarbiyaviy munosabatlar samarali xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy faoliyatning kommunikativ munosabatlar jarayonida o'ziga xos qator qoidalari ham mavjud bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ushbu qoidalarni mukammal bilishi lozim. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchining madaniy saviyasida va o'quvchi muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning "aql-zakovati, fikr-tuyg'ulari, bilimi va madaniyat saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi" (Aziz Yunusov). So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazishni amalda o'z pedagogik faoliyatida qo'llovchi o'qituvchi o'z hissiyotlarini, ijodiy ta'sirlanishini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi va o'z his-tuyg'ularini faqat ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish uchun ifodalashi hamda o'quvchi qalbini noo'rin so'zlar bilan jarohatlab qo'ymasligi, so'zlarni aniq ifodalashda pedagogik takt normalaridan chiqib ketmasligi lozim.

O'qituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari so'z bilan og'zaki ta'sir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralar nutqda

ovozning baland-pastligi bilan mos kelishi kerak. Ogohlantiruvchi so‘zlar, notiqlik san’ati asosida ta’sir etish, vazifani ijro etishga undovchi buyruqlar, ta’qiqlangan iboralarni ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatish, o‘quvchining erkin mulohazalarini ma’qullah yoki nojo‘ya harakatlari uchun ayblash so‘zning og‘zaki ta’sir etuvchi komponentlaridir. So‘z bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarining birligi ma’lum qilinayotgan axborot hajmdorligi va ta’sirchanligini kuchaytirishi lozim. Har qanday sharoitda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan sinfda uchrashishga maxsus hozirlik ko‘rishi lozim.

So‘z bilan og‘zaki ta’sir qilishda o‘qituvchi nutqi nihoyatda muxtasar, ravon va muloyim bo‘lishi, intonatsiyalar o‘z o‘rnida ishlatishi kerak. So‘z bilan og‘zaki ta’sir o‘tkazish qudrati Sharq xalqlarida azaldan ma’lum bo‘lgan. Chunki o‘qituvchining “Ma’noli va bejirim gapira bilishi, nutq daryosidagi maqbul va nomaqbul to‘lqinlarni ilg‘ay olishi, so‘zning orqa-o‘ngini, munosib o‘rnini farqlay bilishi, nutqiy fahm-u farosat, tahrli so‘z odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining, ma’naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan”, deb ta’kidlaydi tilshunos olim N. Mahmudov.

Hozirgi davrda o‘qituvchi faoliyatida uchraydigan kommunikativ munosabatlarda so‘z bilan og‘zaki ta’sir etish xilma xil bo‘lib, bevosita pedagogik ta’sir ko‘rsatishning nisbatan mustaqil ko‘rinishini o‘zida mujassamlashtiradi. Bilish, anglash, ekspressiv (his-tuyg‘uga berilish holati), ijtimoiy an‘anaviy muloqot, inson holatini so‘zsiz tushunish, dilkashlik o‘qituvchining pedagogik faoliyatida uchraydigan doimiy takrorlanib turadigan kommunikativ munosabatlarning turlaridir. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda ularni nazarda tutish lozim.

Ayniqsa, pedagogik ta’sir ko‘rsatishni tashkil etishda so‘zning ahamiyati bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik muomala madaniyatiga va tarbiyachining shirin so‘zligiga alohida talablar qo‘yiladi. So‘zlashganda odob va ehtirom o‘qituvchining pedagogik mahoratida uchraydigan muhim insoniy fazilati sifatida namoyon bo‘ladi. Xushmuomalilik – o‘qituvchi va tarbiyachilarining sinfda individual ish olib borish jarayonida ota-onalar hamda o‘quvchilar bilan muloqotni aniq bir

tarbiyaviy maqsadni ko‘zlagan holda tashkil eta olishi va ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni to‘g‘ri boshqara bilishidir. O‘qituvchining kasbiy faoliyatida xushmuomalalikning yosh o‘qituvchi amal qiladigan mezonlarini alohida ta’kidlab o‘tamiz.

O‘qituvchi kasbiy mahoratida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan insoniy fazilat hamda xushmuomalalikni o‘zida shakllantirishi uchun muntazam faoliyat olib borishi zarur. O‘qituvchi pedagogik faoliyatiga oid shaxsiy o‘z-o‘zini tarbiyalashning o‘zaro fikr almashish va aloqadorlikka doir quyidagi tizimlarini tavsiya etish mumkin.

Kasbiy faoliyat jihatidan o‘z-o‘zini anglashni (muomalada o‘zaro fikr almashishga doir sifatlarni, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o‘zaro fikr almashish asosida o‘z-o‘zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish.

O‘z kasbiy faoliyatiga quyidagi yo‘nalishlarda baho berish maqsadga muvofiq: kishilar bilan bo‘lgan muomaladan so‘ng olingen taassurotlarni tahlil qilish, o‘quvchilar bilan muomalaning so‘nggi hollatlarini o‘rganib, muomala haqida o‘zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, muomaladagi imkoniyatlaringizni atrofdagilar (o‘qituvchilar jamoasi, ota-onalar, o‘quvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarga ega bo‘lish.

Mavzu yuzasidan quyidagi savollar haqida o‘ylab ko‘ring.

1. Pedagogik ta’sir ko‘rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifati to‘g‘risida tushunchaga egamisiz?
2. “Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi” ma’ruzani o‘rganib chiqing. Muloqot jarayonini boshqarish uslublari va xususiyatlari?

18-mavzu. Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik-psixologik tasnifi (ma’ruza)

1-topshiriq. Mavzu yuzasidan mashqni bajaring.



Mashq

Muammoli vaziyat

**Pedagogik muloqotni tashkil etish yo‘llari
ahamiyatli tomoni nimada deb o‘ylaysiz?**

***2-topshiriq. Pedagogik muloqot nima uchun kerak? Nima
uchun? texnikasi orqali tahlil qiling.***

1. Pedagogik muloqot *nima uchun* kerak?

Muloqot o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining o‘zaro ta’sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o‘zaro axborot almashishida, ta’lim va tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishida, o‘zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo‘lishi uchun kerak.

Muloqot o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining o‘zaro ta’sir malakasi, o‘zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo‘lishi uchun kerak.

Muloqot o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasining o‘zaro ta’sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o‘zaro bir-birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo‘lishi uchun kerak

2. Ta’lim jarayonini o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro yaqin muloqoti *nima uchun* kerak?.

Salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish; o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish; o‘quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o‘z fikr-mulohazalarini cho‘chimasdan bayon qilib unga tayanishga o‘rgatish; o‘quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish; dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

Salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish; o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish; dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

Salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish; o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilish; o‘quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o‘z fikr-mulohazalarini cho‘chimasdan bayon qilib unga tayanishga o‘rgatish; quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish.

3-topshiriq. Quyidagi mashqni bajaring.

Termin	Ta’rif
Kommunikativ muloqot	bir tomonlama axborot uzatish
Interaktiv muloqot	muhim jihatni ikki tomonlama bir-biriga ta’sir etish
Perseptiv muloqot	o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi o‘zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglash
Kommunikativ aloqa	o‘quvchi bilan dastlabki o‘zaro tanishuv jarayonida bevosita muloqotni tashkil etish

**Mazkur modul bo‘yicha berilgan mavzularni
o‘zlashtirganingizdan so‘ng barcha mavzular
mazmun-mohiyatidan kelib chiqib shakllantirilgan
nazorat savollarni bajaring**

**“Pedagogik texnologiyalar” o‘quv moduli bo‘yicha
mavzularga oid test savollari**

**1-mavzu. O‘zbekistonda ta’lim tizimi. Hozirgi davrda
o‘qituvchilik kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rnii**

**1. Pedagogika atamasi qaysi so‘zdan kelib chiqqan va qan-
day ma’noni bildiradi?**

- a) pedagogika atamasi qadimgi lotin tilidagi “paydogos” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “bola yetaklovchi” degan ma’noni bildiradi
- b) qadimgi grek tilidagi paydogos so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “o‘qitaman”, “o‘rgataman” degan ma’noni anglatadi
- c) ingliz tilidagi “payne” so‘zidan olingan bo‘lib, bolani yetaklash, tarbiyalash degan ma’noni bildiradi
- d) qadimgi grek tilidagi “paydogos” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “bola yetaklovchi” degan ma’noni bildiradi

2. Pedagogika qanday fan?

- a) pedagogika tarbiyaning nazariy asoslarini tadqiq etuvchi ijtimoiy gumanitar fan
- b) pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatları, prinsipları, shakl va metodlari haqidagi gumanitar fan
- c) pedagogika ta’lim jarayonining mazmuni, qonuniyatları, metodlarini o‘rganuvchi, ijtimoiy, umumkasbiy fan
- d) pedagogika ta’lim-tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, qonuniyatları, metodlarini o‘rganuvchi ijtimoiy, umumkasbiy fan

3. Demokratik jamiyat qanaqa pedagogikaga tayanadi?

- a) demokratik tarbiya va avtoritar pedagogikaga

- b) avtoritar pedagogikaga va ilmiy, insonparvar tarbiya tizimiga
- s) totalitar tarbiya va demokratik pedagogikaga
- d) demokratik pedagogika va demokratik tarbiyaga

4. Pedagogik jarayon nima?

- a) pedagogik tizim
- b) maqsadga erishish uchun belgilangan ta'limiy jarayon
- s) ta'lim beruvchi bilan ta'lim oluvchi o'rtaсидаги berilgan maq-sadga erishishga yo'naltirilgan jarayon
- d) pedagogik harakatlar tizimi

5. Ta'lim texnologiyasi tushunchasi o'z ichiga nimalarni qam-rab oladi ?

- a) ta'lim-tarbiyaning maqsadi va mazmuni, o'quv jarayoni, loyiha, ta'lim texnologiyalarini, vosita va shakllarni
- b) o'quv jarayoni, loyiha, ta'lim texnologiyalari, vosita va shakllar
- s) ta'lim-tarbiyaning usul va shakllari, faoliyat yo'nalishini, mahoratni
- d) ta'lim jarayonidagi yo'nalish, texnika, usuli, vosita va shakllar

6. Pedagogik tizim nima?

- a) individni shaxs, mutaxassis sifatida shakllantiruvchi, harakat-dagi ijtimoiy-pedagogik xodisa
- b) ta'lim-tarbiya jarayoni, tizim
- s) bo'laklardan tuzilgan ijtimoiy birlik
- d) jarayonni bosqichma-bosqich usulda ifodalash

7. Uzluksiz ta'lim tizimi necha turdan iborat?

- a) 8
- b) 5
- s) 10
- d) 7

8. Ta’lim jarayonining vazifalariga nimalar kiradi?

- a) ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faolligini kuchaytirish, fikrlashni, xotirani, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish
- b) ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkillashtirish
- s) ta’lim oluvchilarning fikrlashni, xotirani, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish
- d) ta’lim oluvchilarning o‘quv ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish

2-mavzu. Pedagogika fanining ilmiy izlanish metodologiyasi va metodlari

1. Pedagogika fanining predmeti nima?

- a) yosh avlodni o‘qitish, tarbiyalash
- b) ta’lim-tarbiya, ma’lumotning mohiyati, qonunlarini ishlab chiqish
- s) ta’lim-tarbiya va shaxsnı shakllantirish jarayonining qonuniyatları, prinsiplarini o‘rganish
- d) inson shaxsini rivojlanish qonuniyatlarını tadqiq qilish asosida tarbiya metodikasini aniqlash

2. Pedagogika faniga berilgan quyidagi ta’riflardan qaysi biri to‘g‘ri deb hisoblaysiz?

- a) pedagogika uzlusiz ta’limni amalga oshirish, yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan
- b) pedagogika inson haqidagi fan
- s) pedagogika ta’lim-tarbiya va ma’lumot qonuniyatları haqidagi fan
- d) pedagogika uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimining nazariy asoslarini va prinsiplarini, ta’lim-tarbiya jarayonida inson shaxsini rivojlanirish, shakllantirishning mohiyati, qonuniyatları haqidagi fan

3. Pedagogika fanining asosiy tushunchalari qaysilar?

- a) maktab, o‘qituvchi, ta’lim-tarbiya

- b) ta'lism, didaktika, ma'lumot, metod
- s) tarbiya, ta'lism, ma'lumot, rivojlanish, shakllanish
- d) o'qitish, tarbiyalash, o'qituvchi, ma'lumot

4. Pedagogik hodisa sifatida tarbiyaning mohiyati nimadan iborat?

- a) o'quvchilarga milliy istiqlol g'oyalarini, vatanga muhabbatni singdirish
- b) o'qituvchi-murabbiylarning ta'lism-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishi
- s) shaxsnij ijtimoiy tajribani egallash bo'yicha maqsadga qaratilgan ongli ravishda amalga oshiriladigan pedagogik jarayon
- d) mакtab, oila, jamoatchilikning hamkorlikda o'quvchilarni tarbiyalashi

5. Pedagogika fanining asosiy tarmoqlarini aniqlang?

- a) umumi pedagogika, didaktika, psixologiya, logopediya
- b) mакtab pedagogikasi, maxsus pedagogika, pediatriya, mакtabgacha tarbiya pedagogikasi
- s) umumi pedagogika, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, o'rta mакtab pedagogikasi, maxsus pedagogika
- d) umumi pedagogika, oila pedagogikasi, filosofiya, harbiy pedagogika

6. Pedagogika fanining metodologik asoslarini belgilang?

- a) ta'lism-tarbiyaning umumi qoidalari, tarbiya haqidagi g'oyalar, prinsiplar
- b) ta'lism-tarbiyada qo'llaniladigan metodlar, amal qiladigan fikr-g'oyalar, qo'llanmalar
- s) pedagogik hodisalarni tadqiq qilishda qo'llanma bo'ladigan ilmiy-falsafiy g'oyalar, ilmiy meros
- d) ilmiy meros, ta'lism-tarbiya metodlari, pedagogik hodisalar, o'qituvchilarning tajribalari

7. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari qaysilar?

- a) kuzatish, anketa, laboratoriya, ekskursiya, illyustratsiya
- b) kuzatish, hikoya, suhbat, leksiya, anketa
- c) kuzatish, suhbat, anketa, maktab hujjatlarini o'rganish
- d) kuzatish, ishontirish, mashq, suhbat

8. Pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishi – bu ...

- a) o'z-o'zini rivojlantirish
- b) o'z-o'zini baholash
- c) o'z-o'zini tahlil qilish
- d) o'z-o'zini anglash

3-mavzu. Rivojlanishning asosiy qonuniyatları

1. Shaxs rivojlanishi va tarkib topishining asosiy omillari qaysilar?

- a) oila, maktab, moddiy turmush sharoiti
- b) muhit, tarbiyalovchi jamoa, adabiyot, san'at
- c) irsiyat, muhit, tarbiya, shaxsning o'z faoliyati
- d) irsiyat, tabiiy muhit, kattalar namunasi

2. Rivojlaniruvchi ta'limning mohiyati nimadan iborat?

- a) aniq bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar, harakat yo'llarini egallaydilar
- b) aniq bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradilar, harakat yo'llarini egallaydilar
- c) aniq bilimlarni o'zlashtiradilar, o'zlarining o'quv faoliyatlarini tuzadilar
- d) aniq ko'nikmalarni o'zlashtiradilar, o'zlarining o'quv faoliyatlarini boshqaradilar

3. Rivojlaniruvchi ta'lif berishda o'qituvchining asosiy vazifasi nimadan iborat?

- a) bilish qobiliyatlarini rivojlanirish, o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkillashtirish
- b) farazni ilgari surish va tekshirishdan iborat bo'lgan, muammoni yechish
- c) xulosani tekshirish
- d) muammoli vaziyatni anglash, muammoni ifodalash

4. Rivojlaniruvchi ta'lifda talabalar qanday vazifalarni bajaradilar?

- a) bilim va ko'nikmalarini o'zlashtiradilar, harakat yo'llarini egalelaydilar, o'quv faoliyatlarini tuzadilar va boshqaradilar
- b) qayta takrorlaydilar, o'quv faoliyatlarini tuzadilar va boshqaradilar
- c) mashq qiladilar, o'quv faoliyatlarini tuzadilar va boshqaradilar
- d) namuna bo'yicha harakat yo'llarini egallaydilar

5. Rivojlanish deb nimaga aytildi?

- a) rivojlanish bu – inson shaxsining tarkib topish jarayoni
- b) kishining aqliy, axloqiy-ma'naviy jihatdan kamol topishi
- c) odamni anatomik-fiziologik jihatdan o'sishida, psixikasida, bilish qobiliyati, xulqi, ijtimoiy-siyosiy qarashlarida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlar jarayoni
- d) bolalarning jismoniy va ruhiy jihatdan o'sishi, shakllanishi

6. Shakllanish deb nimaga aytildi?

- a) shaxsning irsiyat, muhit, tarbiya ta'sirida rivojlanishi
- b) tarbiya va muhit ta'sirida kishilar o'rtasida muayyan munosabatlar tarkib topishi
- c) rivojlanish natijasi, shaxsning tarkib topishi, insoniy sifat va xususiyatlarning barqarorlashuvi, muayyan qiyofa kasb etish
- d) inson tanasining rivojlanishi natijasida muayyan qiyofaga kirish, shakl tugallanganlik kasb etishi

7. Insoniyat to‘plagan ijtimoiy-tarixiy tajribaning tarkibiy qismalarini aniqlang?

- a) insoniyat hayot tajribasi, mehnati jarayonida to‘plagan bilimlar
- b) ta’lim-tarbiya sohasida to‘plangan tajribalar, ilg‘or g‘oyalar
- s) tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar, ijodiy faoliyat usullari, ma’naviy munosabatlar
- d) ma’naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat qurollari, o‘qituvchlarning ijodiy faoliyati

8. Rivojlanish deb nimaga aytildi?

- a) rivojlanish – inson shaxsining tarkib topish jarayoni
